

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Musiqa, badiiy grafika mehnat ta‘limi fakulteti
«Kasbiy ta‘limni o‘qitish metodikasi» kafedrası

**QAXXOROVA DILFUZA
«O‘RTA OSIYODA MEHNAT VA KASB TA‘LIMINI
RIVOJLANISH TARIXI»**

5142000- mehnat ta‘limi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Ish ko‘rildi va himoya

qilishga ruxsat berildi

kafedrası mudiri

dots. B.Muranov _____

«_____» _____20__y.

Ilmiy rahbar .

_____M.Aminova

«_____» _____20__y.

Taqrizchilar: p.f.n. dots.

_____ B.Doniev

p.f.n. dots.

_____ A.Saidov

«_____» _____20__y.

SAMARQAND-2014

MUNDARIJA

KIRISH	1
---------------------	---

I-BOB. MEHNAT VA KASB TA'LIMINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

1.1-§. Mehnat va kasb ta'limining paydo bo'lishi va taraqqiyoti	7
--	---

1.2. §. Mehnat va kasb ta'limi va uning rivojlanish tarixi	13
---	----

II BOB. MANBALARDA MEHNAT VA KASB TA'LIMINI RIVOJLANISHI VA O'RGANILISHI HAQIDA

2.1-§. O'rta SHarq mutafakkirlari ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar va ularning mehnat ta'limidagi o'rni	19
---	----

2.2-§. Tarixiy manbalarda kasb-hunarlarini o'rganish afzalligi haqida	29
---	----

2.3-§. Tajriba – sinov ishlarining borishi va olingan natijalar taxlili	55
---	----

XULOSA	66
Taklif va mulohaza	68

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	70
---	----

KIRISH

Orzu tilak yo‘li mehnat tagida,
Xazinaning mo‘li mehnat tagida.

Abu SHukur Balxiy

Mavzuning dolzarbligi.

«Xalqning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida SHarq xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tayziqqa qaramay O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini xamda o‘ziga xos an’analarini saklashga muvaffaq bo‘ldi».¹

Asrlar osha bizgacha etib kelgan milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy va ma’rifiy madaniyatimiz, mehnat va kasb ta’limi mustaqillik sharofati ila yangidan rivoj topa boshladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasuri»da ta’lim va tarbiya tizimida, jumladan, mehnat va kasb ta’limida ajlodlarimiz tajribalarida milliy, ma’naviy, ma’rifiy meroslarimizdan keng foydalanish, qadriyatlarni chuqur o‘rganish zarurligi belgilab berilgan. Mehnat va kasb ta’limi tizimida avlodlarimiz hayotiy tajribalaridan foydalanish, urf-odatlar, milliy aqidalar, moddiy va ma’naviy meroslarini o‘rganish va bu soxani butunlay tubdan qayta qurishni taqozo etadi. Bu tizimda avlodlarimiz xalq hunarmandchiligi meroslarini o‘rganish, amalda qo‘llash va o‘rgatish, mehnat va kasb ta’limi sohasi tarixiy, etnik, milliy, mahalliy jihatlardan islox qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Bu esa ta’lim tizimida o‘quvchilarning mehnat tayyorgarligini oshirishda va kasb tanlashda katta ahamiyat kasb etadi.

SHu sababli mehnat va kasb ta’limi samaradorligini oshirishda, yosh avlod barkamol xislatlarini o‘zida mujassamlashgan inson bo‘lib etishishida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijodiy, ma’naviy merosi, xalq og‘zaki va yozma ijodiyoti

¹ И.Каримов. Узбекистон XXI аср бусагасида. Т., «Узбекистон», 1997, 137 бет.

namunalarining urni; tasviriy, amaliy san'at va xalq hunarmandlari merosini ta'limiy, tarbiyaviy mohiyat talqini; SHarq allomalarining shaxs kamoloti, ta'lim, tarbiya to'g'risidagi g'oyalarining O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida qo'llanilishi; davlatimiz va hukumatimizning ta'lim-tarbiya, ma'naviy va milliy qadriyatlarni, tariximizni tiklash va o'rganish to'g'risidagi qaror va qonunlari; O'zbekiston respublikasi konsepsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»; mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi, tayyorgarligi to'g'risida SHarq allomalarining salohiyatlarini asoslashni bu muammoning echimi sifatida qarab chiqildi.

Tadqiqot ob'ekti, umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi darslarida, ajdodlarimiz hayotiy tajribalaridan foydalanish, moddiy va ma'naviy meroslarini o'rganish va ulardan darslarda foydalanish jarayonlari.

Tadqiqot predmeti: O'rta Osiyoda mehnat va kasb ta'limida xalq xunarmandchiligini o'rganishning mazmuni, shakli, shart-sharoiti.

Tadqiqotning maqsadi: SHarq mutafakkirlari ta'limotida mehnat va kasb ta'limi o'rganishning xususiyatlarini ochib berish va amalda siphab kurish

Belgilangan maqsad asosida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

1. Mehnat ta'limi darslarida SHarq allomalari asarlari xusiyatlari tahlil qilindi.
2. Mehnat va kasb ta'limida O'rta SHarq mutafakkirlari ta'limotini o'rganishning o'rni va ahamiyati asoslab berildi.
3. Umuminsoniy qadriyatlar va ularning mehnat ta'limidagi o'rni va samaradorligi o'rganildi.

Amaliy ahamiyati – Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarida, ajdodlarimiz hayotiy tajribalaridan foydalanish, urf-odatlar, milliy aqidalar, moddiy va ma'naviy meroslarini o'rganish va ulardan foydalanish jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

YAngiligi va nazariy ahamiyati – O'rta Osiyoda mehnat va kasb ta'limini rivojlanishi xakidagi bilimga ega bulish, O'rta SHarq mutafakkirlarining

mehnat va kasb ta'limi xakidagi ta'limotini dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash, foydalanish yo'llari, shart-sharoitlari yoritiladi.

Tadqiqot uslublari – Turli xil manbalar, adabiyotlarni o'rganish, konspekt olish, qayd qilish, hujjatlar bilan tanishish, tajriba-sinovlar o'tkazish, anketalar, testlar, so'rovnomalar o'tkazish.

Tadqiqot uslubi. Turli xil manbalar, adabiyotlarni urganish. Konspekt olish, kayd kilish, xujjalar bilan tpnishish, tajriba sinovlar utkazish, anketalar , testlar, surovnomalar utkazish.

Muammoning ishlanganlik darajasi - Insoniyat uzoq o'tmishdan buyon yosh avlodning mehnat ta'lim-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi to'g'risida turli xil kuzatishlar, tahlillar olib borgan, fikr-mulohazalar yuritgan, taklif va tavsiyalar bergan. Insonlar qabila bo'lib yashaganlaridanoq yosh avlodning mehnatsevar, kasb-hunarlariga ega bo'lishlarini orzu qilganlar. Ushbu g'oyalar turli dinlarning muqaddas kitoblarida ham keng rivojlangan: Masalan, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da «YAxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o'z qullari bilan moddiy ne'matlar yaratishi lozim» deyiladi. SHuningdek, islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan «Quron» da va uning g'oyalarini xalq orasida targ'ib etuvchi hadisul shariflarida ham halol mehnat kasb-hunarlar o'rganish lozimligi to'g'risida ko'plab fikrlar bildirilgan.

SHarq mamlakatlarida turli davrlarda yashagan buyuk mutafakkirlar, allomalar Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, az-Zamaxshariy, YUsof Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida ham halol mehnatsevarlik, kasb-hunar tarbiyasi ulug'langan. Masalan, Alisher Navoiyning barcha asarlarida, jumladan «Xamsa» dostonlaridan biri hisoblangan «Farxod va SHirin» dostonida «Ki vayronaliklarida yuz guhardur, Agar qilsam madad voqi' hunardur» deb aytgan so'zlari xalq orasida maqollarga aylanib ketgan.

Xozirgi davrda ta'lim va tarbiya tarixini O'zbekistonlik olimlardan M. Ablurasulov, X. Alikulov, I. Muminov, N. Nuriddinovlar, mehnat va kasb-hunar ta'limining turli sohalarini esa N.SH. SHodiev, O'.K. Tolipov, N. Sayidaxmedov,

R.X. Juraev, B.I. Muranov, O. Abduquddusov, Q. Mustafaev, SH. SHaripov, K.Davlatov, I.Karimov, J.Ramizov, D.Razzoqov, A.R. Xodjabaev, U. Nishonaliev va boshqalar o‘rgandilar, kuzatdilar, tadqiqot ishlarini olib bormokdalar. Masalan, O‘.K. Tolipov - o‘zining tadqiqotlarida o‘quvchi talaba yoshlarda umummehnat umumkasbiy fazilatlarini shakllantirish muammolarini, SH. SHaripov – o‘quvchi yoshlarda texnik ijodkorlik, kreativlikning pedagogik mexpizimini, O. Abduquddusov – o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida o‘qitishda DTSlar, namunaviy va ishchi o‘quv rejaları ish lab chiqishda va amaliyotga joriy etish, B.I. Muranov – qishloq o‘quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotlariga talabalarni kasbiy tayyorlash, N. Sayidahmedov – talabalarni o‘quvchilarning unumli mehnatiga rahbarlikka tayyorlash va pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga, jumladan, mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirish muammolari ustida ilmiy tadqiqot olib bordilar.

. **Tajriba – sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili.** Bitiruv malakaviy ishini bajarishda bir necha umumta’lim maktablari va Samarqand shahridagi 1-son pedagogika kollejining mehnat ta’limi bo‘limida pedagogik amaliyot davrida va boshqa davrlarda tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Kollejning o‘qituvchilari Kushmuradova M., Yuldosheva G., Rasulova M., Jalilov J., Komilov J., Dustmurodova U. kabi ukituvchilarning 201, 202, 101, 215, 203, 301, 302 – guruxlarda xalq hunarmandchiligi (kashtachilik)ga va turli materiallar bilan ishlashga bagishlangan dars mashg‘ulotlari kuzatildi. Samarqand shahridagi 55 va 63 – sonli umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9 sinflaridagi mehnat ta’limi o‘quv kursini ba’zi mavzulari, 2-3 chorakda mo‘ljallangan bo‘limlari bilan bevosita tanishildi, ya’ni bevosita darslar kuzatili, amaliyotchi-o‘qituvchi (talaba) sifatida biz tomondan ishlanmalar. Tarkatma materiallar tayyorlandi, tajriba-sinov materiallari darsi sifatida o‘zimiz ham o‘tdik.

I-BOB. MEHNAT VA KASB TA’LIMINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

1.1-§. Mehnat va kasb ta’limining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy xayotida tubdan o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyat tuzilishlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy qadriyat va urf-odatlarimizning qaytadan tiklanib, asl xolicha yoritilishiga tabiiy ehtiyoj tug'ilmoqda.

Ma'naviyatimizning tarixiy rivojlanishining yoritilishi yosh avlodni o'qitish tizimiga, fanlarning rivojlanishiga va tarixan yondashish zaruratini keltirib chiqardi.

Tarix zarvaraqlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo davlatlari jumladan, O'zbekiston xududidagi xalq juda qadimgi davrda, miloddan avvalgi ming yilliklarda paydo bo'lib, taraqqiyot bosqichlarining yoritilishi etarlicha o'rganilmay, kelajak avlodga etkazilmasdan keldi.

Kishilik jamiyati paydo bo'lishi, to'g'rirog'i, tafakkurli odam (homo sapiens)ning utmishdoshi va ajdodlaridan ajralib chiqishi bilan, unda mehnat qila olish uchun maqsadli harakatlar uyg'unligi paydo bo'la boshladi. Maqsadli mehnat harakatlari (ov qilish, boshpana, oziq-ovqatlar tayyorlash va boshq.) tafakkurli odamning odam sifatida shakllanib, rivojlanishiga olib keldi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, tabiiy odamning eng oliy mavjudodi - tafakkurli odam, uning shakllanishi esa 40 ming yil ilgari boshlangan.

Markaziy Osiyodagi arxeologik xududda neandertal odamni o'rganishga tabiiy sharoitning muvofiqligi - mu'tadil iqlimning mavjudligi, oqar suvlar, daraxt va boshqa ko'katlar mavjudligi, yashashga sharoitning qulayligi sabab bo'lgan. Muste davriga oid, odamlar yashagan g'or Bulbulzorsoyda, Omoqutonning qo'yi tomonida Samarqand viloyatida (1947) topilgan. Bu davrda odamlar yashagan yana bir makon Takaliksoy g'ori dengiz satxidan 2000 m. balandlikda, Taxtakoracha dovonida joylashgan bo'lib, qoldiqlari karst tipida-marmarlashib qolgan oxaktosh shaklidir. O'rta Osiyo territoriyasida ilk urug'chilik jamoasiga mansub yuqori paleolit makoni 1939 yilda topilgan bo'lib, ushbu makon Siyobcha soyining o'ng qirg'og'ida, Samarqandning markazida, madaniy qoldiqlar sarg'ish sog' tuproqda saqlangan.

Quy *paleolit* – ilk tosh asriga oid topilmalar Selungur g'orida (Farg'ona), Kulbuloqda ham (Toshkent) uchraydi.

Mute davriga oid odamlar yashagan Teshiktosh (Surxandaryo), Obi-rahmat (Toshkent), Kalacha va Sux (Farg'ona), Uchtut (Buxoro), Buzsuv (Toshkent) kabi joylardan topilganligi o'sha davrda ibtidoiy odamlar makoni ko'pligidan dalolat beradi.

So'nggi paleolit va mezolit davriga oid makonlar Samarqand, Uchtut (Buxoro), Oxangaron va Oqtosh (Toshkent), Machay (Surxandaryo), Obishir (Farg'ona) kabi joylarda izlari saqlanib qolgan. Bu davrlarda boshlangan rivojlanish neolit davriga kelib, Kalta minor madaniyati va jez shaklida taraqqiy etgan.

Ibtidoiy odamlar tabiat kuchi, tirikchilik qiyinchiligi, kunlik moddiy ehtiyoji uchun turli moslamalar, tosh, nukleus, yog'och, chaqmoqtosh va dioritdan yasalgan mehnat qurollari yordamida kun kechirganlar, ov qilib, ov maxsulotlariga ishlov berib, uni iste'molga tayyorlaganlar. Ularning mehnat qurollari bo'lib, turli qirg'ich, keskich, sixcha, tosh pichoq, diskasimon sanchki, ushatkich, toshdan yasalgan bolta, yupqa tosh parrakcha, xolsedondan yasalgan yupka plastinka (xayvon terisini shilish uchun), tosh parrak(arra o'rnida) va shu qabilar xizmat qilgan.

Boltalar chaqmoqtoshdan yasilib, turli kattalikda bo'lgan, turlicha maqsadlarda (daraxt shoxi va hayvon suyagini maydalash, toshni sindirish va er kovlash uchun) ishlatilgan.

Paleolit makonida topilgan to'rtlamchi bosqichga taalluqli pleysseton davri yovvoyi hayvoni bug'u, eshak, mamont suyak, kuydirilgan turli shox va baliq suyak qoldiqlari neandertal odamining yashash tarzi ancha xilma-xil bo'lganligidan dalolat beradi.

Neandertal odamining bevosita izdoshi bo'lgan, paleolit davri kromanon odami faqat ibtidoiy moddiy ehtiyojni qondirish uchun emas, balki tabiat maxsulotlaridan ikkilamchi ehtiyoj uchun bezak va taqinchoqlar tayyorlaganlar. (M: kromanon odamining Samarqand makonidan beshta maxsus belgili hayvon

qovurg'asi, hozirgi Daxbet ko'chasidan 6 m. chuqurlikda maxsus teshikli dengiz chig'anog'i va sakkizta danakcha (maxsus teshikli), kattaligi bir xil bo'lgan ikkita oq qayroqtosh topilgan). Madaniy geologik qatlam mavjudligi pleysseton – 0 ga to'g'ri kelib, o'rtasi ishqalangan, chiziqli, yupqa yumaloq tosh topilishi usha davr odamining tafakkuri rivojlana boshlaganidan darak beradi.

Paleolit davridan keyingi davrda, mezolit - o'rta tosh asri, neolit - yangi tosh asri, jez - bronza davrida ham tafakkurli odamning shakllanishi davom etdi. Bu davrda ibtidoiy odam O'rta Osiyoda Uzunkul, Toypokkul (Farg'ona), Jonboskal'a, Suvyorgan (Qoraqolpog'iston), Katta va Kichik tuzkonlar, Zamonbobo (Buxoro), CHust Amirobod (Xorazm), Sopollitepa (Surxandaryo), Sazogon va Tim (Samarqand) kabi ko'plab makonlarda yashab, o'ziga xos madaniy qoldiqlar qoldirgan. Ushbu makonlardan mikrolitik mazmundagi juda ko'plab mehnat qurollari: qirg'ich, bigiz, nukleus, kamon, uq va boshqalar topilgan. Bular usha davr odamining faoliyati ancha takomillashganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning oxiri, ikkinchi ming yillikning boshida ikki muhim soxa: chorvachilik (hayvonlarni xonakilashtirish) va dehqonchilik vujudga kelib mehnat unumdorligini ancha oshirib, odamlarning yashash tarzini ancha o'zgartira boshladi. Ona (matriarxat) davridagi shakllangan qabilardan yirik pattiarxat oila va qabilalar yuzaga keldi. Bu davrga to'g'ri keladigan makonlardan (Novkatepa – Kattaqo'rg'on yaqinida, Muminobod-Zarafshon qirg'og'ida va boshq.) turli sopol buyum, pishirilib loydan yasalgan idish, yorguchok (don maxsulotlarini maydalash moslamasi) qoldiqlari va turli xil kiyim qoldiqlari (zigirdan to'qilgan, teridan tayyorlangan), zig'ir tolasiga o'tkazilgan munchoqlar tizimi, bilak uzuklar usha davrdagi odamning tafakkuri ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Ibtidoiy odamlarning yashagan makonidan topildiqlarni qiyosiy o'rganish O'rta Osiyoda yashagan odam bilan Hind okeani soxilidagi qabila bilan qandaydir o'zaro aloqada bo'lganligi, o'sha odam antropologik tipining hozirgi odamga o'xshab ketishi, ko'chmanchi qabila bilan qabila o'rtasida ham qandaydir aloqa bo'lganligidan dalolat beradi.

Milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikda dehqonchilik va chorvachilik


rivojlanishi ko'pgina qabilalarning utroqlashishiga sabab bo'lib, tabiiy himoyalangan, tog', suv va tik qirlar bilan himoyalangan joylarda turli qabilalar to'planishib (M: sak va massaget qabilalari), varlar shaklida yirikroq markazlar (M: shaharlar-Afrosiyob, Xorazm, SHosh, CHust va boshq.) yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Quldorlik tizimida qabilalar markazlashib, shaharlar vujudga keldi va turli davlatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ana shunday markazlar jumlasiga Kuxna Elaton (Farg'ona), Guzalikir va CHirikrabort (Xorazm), Afrosiyob (Samarqand), Kangxa (Qozog'iston) va boshqalarni keltirish mumkin. Turli xil davlatlar: Salavkiylar, YUnon-Baktr davlati, Evtidemlar sulolasi, Toharlar, Kangxa (Kanguy) davlati, Farg'ona (Parkana) davlati, Kushon podsholigi, Afrigiylar davlati va boshq. O'zaro urushlarda boshqalarni engish orqali tez sur'atda rivojlantirishga sabab bo'ldi.

Milodgacha bo'lgan birinchi ming yillikning o'rtalaridan Milod davrigacha bo'lgan taraqqiyot nishonasi sifatida keramika, kulolchilik ustaxonasi, charxi qoldiqlarining topilishi, buyumlarni ko'plab ishlab chiqarishga talab katta bo'lgan. Bu davrga oid topilmalar: muxr-gema, sopol plitalardan qilingan mexroblar, terakotadan yasalgan xaykalcha, turli shakldagi sopol idish, kuza, turtburchakli, teshikli sugd chaka va boshqalar bu davrdagi taraqqiyotning turli darajada rivojlanayotganligini bildiradi.

SHahar va yirik manzillar qalin devor bilan o'ralib, harbiy istexkomlar darajasida ta'mirlangan, sopol quvur bilan jihozlangan ochiq va yopiq sug'orish tizimi barpo qilingan, bularning barchasini malakali hunarmandlar bajarganlar.

O'rta Osiyo mazkur davrdagi ma'naviy taraqqiyotni shartli ravishda quyidagi davrlarga mansub deyish mumkin:



Idishlar xilma-xilligi, qadaх, kosa, riton, suvdon, ayol ziynati, libosi yuqori did bilan tayyorlanishi maxalliy sugʻdlarning turli din va madaniyati rivojlanganligini koʻrsatdi.

Xalq hunarmandchiligi sanoat ishlab chiqarish darajasida taraqqiy etdi. Kul, koranda, muzdur, xalfa va shogirdlar mehnatidan arzimasa haq evaziga foydalanilar edi. Qimmatbaho metallar (oltin, dur, haqiq, zabarjad va boshq.) xalq hunarmandchiligida yuksak did bilan foydalanish keng avj oldi. Eftalit–turk koroplastikasi sopol buyum tayyorlashda cheti toʻlqinsimon kosa, likopcha, ilmoqsimon dastali krujka, shaffof-slyuda lok surtilgan, dastali, chumokli tor ogʻizli kuza, turli maqsadda ishlatiladigan turli oʻlchamdagi qozon, shamot aralashtirib tayyorlangan xumcha, temirchilik oʻchogʻi, maxsus sopol vannacha, quyish qolibi, gʻisht terish xumdoni va shu kabi buyumlar yuksak did bilan, haqiqiy sanʼat asari darajasida tayyorganligi, hunarmandchilikning turli yoʻnalishlariga ixtisoslashtirilganligini bildiradi.

Bu davrda oʻzaro urushlar avj olganligi sababli xujum va mudofaa qurollari tayyorlash juda taraqqiy etdi. Qilich, qalqon, xanjar, pichoq, chukmoq, manjanik (qalʼa buzuvchi moslama), oʻq-yoy, nayza, sadoq, qin va shu qabilar alohida did bilan, har xil qimmatbaho material hamda durlar bilan bezatilib tayyorlanar edi.

Sipohiy va sarkardalarning kiyim boshlari zarbof va baxmallardan, otining egar-jabduxlari, yarog'-aslahalari alohida e'tibor bilan tayyorlanib, bir-biridan turli sifatlari bilan ajralib turardi.

Hunarmandchilik xalq, elat va qabilaning yashashi, turmushi bilan uyg'unlashgan xolda rivojlanib, milodiy VI-XI asrlargacha yirik davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Juda ko'p yillik va kishilik harbiy yurishi, mudofaa va xujum quollarining taraqqiyoti bilan yo'g'rib ketadi. Ana shunday urush va janjallar davrida madaniy taraqqiyot, urush bo'lgan davlatlarda bir tomondan inqirozi yuz bersa, ikkinchi tomondan bir davlatdan ikkinchi davlatga (urush bo'lmagan bo'lsa ham) majburiy, ma'lum tarixiy davrda, mintaqadagi umumiy taraqqiyot in'ikosi yuzaga keladi.

Markaziy Osiyo davlatlarida tarixiy va madaniy taraqqiyot evolyusion o'zgarishida XIII-XIX asrlardagi davr alohida o'zgarishlar yuz bergan davrdan hisoblanadi.

1.2. §. Mehnat va kasb ta'limi va uning rivojlanish tarixi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997 y. 29 avg.)ga muvofiq, o'rta maxsus ta'lim bosqichining majburiy bo'lganligi o'zbek o'quvchilariga mehnat tarbiyasi berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu bosqich to'liq kasbga yo'naltirilgan bo'lib, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari bevosita o'zlari tanlagan kasblarga doir ko'nikma va malakalar shakllantirsalar, akademik litsey o'quvchilari kelajakda egallaydigan kasblarning nazariy asoslarini o'zlashtiradilar. Oliy ta'limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida Mehnat tarbiyasi bevosita kasb ta'limi bilan qo'shib amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi berishda o'quvchilarning bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning o'quv rejasida ko'zda tutilgan, mehnat amaliyotini o'tashlarini to'g'ri

tashkil etish, ularni bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari qoshidagi to'garaklarga ko'proq jalb qilish yosh avlodning komil shaxslar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat va kasb ta'lim-tarbiyasi – ta'lim va tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, institutizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.

Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, "mehnat ta'limi", "kasbga yo'naltirish", "politexnik ta'lim", "kasb ta'limi" singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. SHuning uchun ham barcha ilo-hiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda Mehnat tarbiyasiga katta e'tibor berilgan. Lekin ularga materialist (moddiyunchi)lardan farqli tarzda Mehnat tarbiyasi deyilganda faqat jismoniy mehnatga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirish ko'zda tutilmagan. Mehnat tarbiyasi, avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi b-noq amalga oshirila boradi. Jumladan, chaqaloklar go'daklik bosqichiga o'tishlari b-noq, ularga dastlabki mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. SHunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemptik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin.

Bolalarga mehnat tarbiyasi berishda maktab, kasb-xunar kollejlari singari ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o‘rin tutadi. CHunki bu muassasalarda mehnat tarbiyasi ilmiy asosda tegishli mutaxassislar tomonidan uyushtiriladi. Mehnat tarbiyasini tashkil etishdagi asosiy jihat shundaki, u bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiy, akliy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Bolaning imkoniyatlaridan engil mehnat tarbiyasi ularni zeriktirgani kabi ularning imkoniyatlaridan og‘ir topshiriqlar bolalarni bezdirishi mumkin. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda tizimlilik va institutizom bo‘lishiga qat‘iy amal qilinishi joiz. Aks holda, har qanday qobiliyatli bola ham etarlicha mehnat tarbiyasi ololmasligi mumkin. Mehnat tarbiyasi uchun maktab davri eng qulay fursatdir. Birinchi navbatda, o‘qish jarayonining o‘zi og‘ir akdiy jismoniy mehnatdir. Maktabga o‘z vaqtida kelib-ketish, o‘qish-yozishni o‘rganish, berilgan bilimlarni egallash uchun o‘quvchilarga mehnat tarbiyasi berilgan bo‘lishi kerak. CHunki o‘quv topshiriqlarini bajarish, dars o‘zlashtirish, o‘tilganlarni takrorlash, yozma ishlar bajarish, kerakli matnlarni yodlash, ko‘chirmalar olish, lu-g‘atlar bilan ishlay olishi uchun o‘quvchi muayyan institutizomga rioya etishi, tashkilotchilik qobiliyati va ishchanlik xususiyatiga ega bo‘lishi, ishning ko‘zini bilishi kerak. Mehnat tarbiyasida, avval aytilganidek, mehnat ta‘limi va kasbga yo‘naltirish jarayonlarining ham o‘rni katta. CHunki bu jarayonlarda o‘quvchilar bevosita tegishli mehnat ko‘nikmalarini egallash va ularni mustaqil ravishda qo‘llash bosqichini o‘taydilar. SHuningdek, ular bu asnoda qaysi bir mehnat yo‘nalishi o‘ziga muvofiqroq ekanligini bilib oladilar. SHuning uchun ham mehnat ta‘limi imkon qadar xilma-xil bo‘lishi hamda o‘quvchilarning aqliy, jismoniy imkoniyatlari va jinsiy xususiyatlariga muvofiq kelishi zarur.

Darvoke, yaqin va urta sharda hamda Urta Osiyo xalqlarining taxminan eramizdan oldingi IX asirdan IV asirga kadar to‘zilgan mukaddas kitob “Avesto”da bolalar kamolotida mehnatning va kasb – xunarning ahamiti tugrisida goyat kizik ma’lumotlar bor.

“**Avestoda**” insonda oliy mavjudod sifatida mehnat kilish, moddiy noz-nematlar yaratish va ishlab chikarish, kobilyati mavjud. Inson bu kobilyatni ishga solmas ekan, u insoniy kiyofasini yukotadi, vaxshilashada , yovuzlashadi. Ikkinchidan mehnat insodagi insonilikni ko‘rsatadi, uning ma’naviy xatti-xarakatini va xulk atvorini baxolashda asosiy mezon bulib xizmat kiladi.

Demokrit (er. av.460-370) o‘z asarlarida «talim mehnat asosidagina go‘zal narsalarni hosil kiladi » deb kursatib utadi va tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini takidlaydi. Demokrit doimo mehnat kilib turishni talab kiladi. «Mehnatga odatlana borgan sari mehnat engil bulib koladi » deydi.

Aristotel (er.av.384-322.) bolalarga akliy tarbiya bilan jismoniy mehnat tarbiyasini berishini ta’kidlaydi: bunda u bolalarni xaddan tashkari charchatib kuymaslik kerakligini aytib, ularning organizimi mustaxkamlanib olguncha engil ishlar bilan shugullantirishni tavsiya kilidi. Aristotelning fikricha, mehnat tarbiyasi bolaning iroda, xulk odatlari va ko‘nikmalari, iste’dodining tarkib topishida muxim rol uynaydi. O‘sha vaktlarda xunarmandlarning oilasi va ustaxonalarida bolalarni shogird kilib olish xunar o‘rgatish rasm bula boshladi. SHogirdlar mehnat kilishni shu mehnat jarayoning o‘zida o‘rganar edilar, ular mehnat ko‘nikmalarini egallab, chakkon va epchil ishlaydigan bulib koladilar.

Mehnatsevarlik - insonning butun hayoti va faoliyatida amalga oshadigan jarayondir. Halol mehnat - kishi hayotining mazmunini tashkil etadi. Halol mehnat bilan tirikchilik qilish va yashash inson hayotining eng oliy bezagidir.

SHu bois donolar «Mehnat kishilik jamiyatining eng zarur yashash shartidir», «Inson nima bilan faxrlansa yoki e‘zozlansa hammasi mehnatning natijasidir», deb bejiz aytmaganlar. Ushbu o‘rinda Baxouddin Naqshbandning «Dil ba yoru dast ba kor» degan mashhur hikmati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Buyuk allomaning o‘zi bunga amal qilib kelgan. Ul zot talabalarni

madrasaga qabul qilish paytida biron kasbi bormi deb so‘rar ekan. Hunarsiz odam o‘qishga qabul qilinmagan. Buning sababini buyuk alloma shunday izohlagan. «Agar kishi hunarli bo‘lsa, u bilimni haqiqatga bag‘ishlaydi, o‘z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo‘lmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halol mehnatni unutadi». Hazrati Baxouddin Naqshbandning bu ta’limoti XIV-XV asrda O‘rta Osiyo va Xurosonda keng tarqaldi. U har bir kishining dehqonchilik qilishi, savdo ishi bilan shug‘ullanishi, naqqoshlik, quruvchilik kabi hunarlarni egallashi va uning halol mehnatini ulug‘ladi.

XV asrda yashagan SHarqning etuk allomasi Jaloliddin Davoniy ham Baxouddin Naqshband ta’limotiga asoslangan holda ijod qildi.

Davoniy insonning axloq-odobli bo‘lishida mehnatning ahamiyatini yuksak baholaydi. Insonning har bir harakati har bir bosgan qadami mehnat tufayli ekanligini va uni amalga oshirishdan oldin puxta o‘ylab ko‘rishi, aql tarozisi bilan o‘lchashi lozimligini ta’kidlaydi. Ayniqsa birgalashib ishlashga alohida ahamiyat beriladi.

«Inson bir o‘zi mehnat qilib, yashash uchun va har kuni zarur bo‘ladigan narsalarni qo‘lga kiritishi qiyin. YAKka holda hayot kechirish uchun u o‘zi ovqat pishirishi, kiyim-kechak tikishi, mehnat qurollari yasashi va shunga o‘xshash ko‘p ishlarni bajarishi kerak bo‘lar, bir necha kasb-hunarni egallashga majbur edi. Bu esa hammaga ham nasib bo‘lavermaydi. «Odamlar birlashib, bir-birlariga yordamlashganda boshqalar to‘g‘risida chinakam qayg‘uradi, o‘zaro yordam va aloqa o‘rnatilganda adolatning sinalgan yo‘llari paydo bo‘ladi, yashash vositalari tartibga tushadi, kishilarning ahvoli mustahkamlanadi va inson zoti saqlanadi»¹

Davoniy bu bilan yashash vositalarining bunyod etilishi uchun, kishilar bir-birlariga yordam ko‘rsatishlari natijasidagina kerakli mashg‘ulotlarni etishtirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Xalqimizda «Mehnat - rohat poydevori», «Suvsiz hayot bo‘lmas, mehnatsiz rohat», «Mehnatsiz rohat yo‘q», «YOshlikdagi mehnat qarilikda davlat keltirar», «Mehnat bilan qarisang rohat bilan yasharsan» kabi maqollar mavjud. Bundan

¹ X. Аликулов. Жалоліддин Давоний.- Т.: Ўзбекистон, 1992, 30-бет.

ko‘rinib turibdiki, o‘zbek xalqi orasida mehnat qilish, uy qurish, hovli-joy qilish, imorat qurish qadim-qadimdan ota meros bo‘lib kelmoqda. SHuning uchun ham o‘zbek oilalarida farzandlar ko‘paysa yoki o‘g‘ilni uylantirish oldidan ota merosga amal qilish uni qadrlash, boyitish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Qadimdan ota-bobolarimiz bola tarbiyasida mehnatga o‘rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e‘tibor berganlar. Farzandlarini layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. SHu o‘rinda har bir ota-ona oilada o‘z farzandlarining qaysi kasb egasi bo‘lishlariga jiddiy e‘tibor berishlari zarur. CHunki bolalar biror kasbga qiziqsin, uni egallashga harakat qilishsin. Inson kasb-kori uning husni deyishadi. Dehqonchilik, bog‘dorchilik, tikuvchilik, naqqoshlik, ganch-o‘ymakorlik, duradgorlik kabi kasblar bir necha asrlardan buyon xalqimiz mehnat faoliyatidan keng o‘rin olgan. Mehnatsevarlik xalqimizning asosiy xislatlaridan hisoblanadi. Mehnat tufayli farzandlarimiz mustaqil hayotga qadam qo‘yadilar, erkin inson bo‘lib, har bir narsani o‘zlari hal qiladilar.²

Xalqimiz «Hunar-hunardan unar» deganda, odamning rizqi-nasibasi hunardan, mehnatdan paydo bo‘lishini nazarda tutgan. Bu hikmatlar yoshlarga ibratdir. Bizning ota-bobolarimiz azal-azaldan hunarmand, ijodkoru mirishkor bo‘lishgan. Ularning hunarlari oradan necha yuz yillar o‘tsa-da hali-hanuz qadr-qimmatini yo‘qotmay, ko‘rki tarovatini namoyish etib turibdi. Duradgorlik deysizmi, naqqoshlik deysizmi, zargarlik deysizmi, bog‘bonligu sohibkorlik, ustachilik deysizmi - hammani lolu hayron qoldiradigan ezgu ishlar ajdodlarimizdan, bizlargacha etib kelgan.

Ajdodlarimiz o‘z hunarlarini, san’atlarini kelgusi avlodlarga to‘kis-tugal etkazish, ularni o‘tmishimiz madaniyati-yu, san’ati bilan oshno qilish uchun nechog‘lik mehr-ixlos, katta g‘ayrat-shijoat bilan, ko‘z nurini, qalb qo‘rini sarflab, tinimsiz mehnat qilganlarining guvohi bo‘lamiz. Ayni paytda bilamizki, bizlar ko‘rgan-bilgan san’atkorlik, bunyodkorlik mahsullari o‘z zamonasida yaratilgan asarlarning daryodan bir tomchisi, xolos. CHunki sobiq sho‘ro davriga kelib, hunarmandchilikning qadru qimmati keskin pasayib ketganidan bobolardan qolgan

² У.Маҳкамов. Одоб-ахлоқ сабоқлари. – Т.: Фан, 1995. 84-бет.

boyliklar ham talon-taroj qilib yuborildi. Ne-ne ajoyib kasblar, jumladan kosibchilik, kasanachilik, hunarmandlik san'ati ishlab chiqarish ro'yxatidan deyarli o'chirib tashlandi. CHinakam san'at asarlari o'rnini o'yinchoq sifat buyumlar etallab oldi.

«Haq joyida qaror topadi» deb bejiz aytmagan dono xalqimiz. Mana, vaqti kelib, yana o'sha ota-bobolarimizdan qolgan hunarmandlik san'atiga keng yo'l ochildi. Lekin achinarlisi shundaki, bu ishlar eng mohir va zabardast ustalarimiz olamdan o'tib ketgandan keyingina yo'lga qo'yildi. Endigi gap yoshlar katta qiziqish, zo'r ishtiyoq bilan ajdodlarimiz ishini davom ettirishlarida, qoldi.

Qadim udumlarimizdan yana bir ibratlisi shundaki, ota-onalar kasb tanlashda farzandlarining o'zlariga to'la erkinlik berishgan. Ular qaysi bir hunarni mukammal o'rganishlariga ko'zlari etsa, shunga rozi bo'lib ko'makdoshlik qilishgan.

II BOB. MANBALARDA MEHNAT VA KASB TA'LIMINI RIVOJLANISHI VA O'RGANILISHI HAQIDA

2.1-§. O'rta SHarq mutafakkirlari ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar va ularning mehnat ta'limidagi o'rni.

Donolar «Mehnat umuminsoniy, milliy va ma'naviy qadriyatlar taraqqiyotining negizidir» deb bejiz aytmaganlar.

Milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar bilan milliy o'ziga xoslik o'rtasidagi muvozanatni belgilaydigan mezonlarni aniklash maqsadida umuminsoniy fazilatlar va o'zbeklarga xos xislatlarni teranroq o'rganishga harakat qilinmoqda.

Jahon tarixiy-pedagogik jarayoni va uning hozirgi bosqichi umuminsoniy hamda milliy masalalarni chuqur va har tomonlama o'rganishin taqozo etadi. SHarqning buyuk olimlarinpng pedagogik qarashlari bu borada katta ahamiyatga ega. Bu olimlarning g'oyalari hamda pedagogik qarashlari ijtimoiy-pedagogik fikr

taraqqiyotining dunyoviy jarayoniga, xususan, Ovro‘paga ko‘p darajada ta’sir ko‘rsatdi. SHu bilan birga o‘z navbatida uning ta’sirini ham o‘ziga ola bildi.

Umuminsoniyat tarixida IX-XV asrlarda – SHarkda uygonish davrida – ijtimoiy-madaniy xayotda katta o‘zgarishlar yuz bergan. Bu davlarda yashab, ijod etgan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulugbek, Navoiy, Bobur, Al Buxoriy, At Termiziy, YUsuf Xos Hojib, Mahmud Koshgariy, YAssaviy, Naqshband kabi buyuk daholar jamiyat tarixi va jahon madaniyati rivojiga benazir hissalarini qo‘shgan.

Har bir millatning o‘ziga xos milliy madaniyati va ma’rifati umuminsoniy madaniyat va ma’rifatning ajralmas qismidir. Umuminsoniy sivilizatsiyaga har bir xalq o‘z ulushini, o‘z hissasini qo‘shgan. Umuminsoniy, umumxalq madaniyati, ma’rifati va ilmu fan rivojida har bir xalq bir-biriga ustozlik qilgan. SHu bois, asosiy e’tibor milliy pedagogikamizda mehnat ta’limini tadbik etishga yo‘naltirilgan holda, Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan ayrim mutafakkirlarning mehnat ta’lim-tarbiyasiga doir ta’limotlari xakida ma’lumot berilgan.

O‘rta asrlarda SHarq qomusiy olimlari tomonidan Turonda yangi davrning (I-III asrlar) ko‘pgina ilmiy tasavvurlari asoslari yaratilgan edi. Ular qadimgi SHarq na Antik dunyoning boy ilmiy merosiga suyanib turib bir qator fan tarmoqlarining: falsafa, jo‘g‘rofiya, tarix, riyoziyot va falakiyot ilmini shakllanishiga, ishlab chiqilishiga hissa qo‘sha oldilar. Ularning ushbu yaratuvchilik ishlarida mexnat ta’lim-tarbiyasi jihatdan ahamiyatli bo‘lgan ko‘plab g‘oyalar va qoidalar aytib o‘tilgan. Qomusiy olimlar bilish jarayoniga hayotiy-amaliy yo‘nalish bag‘ishladilar. Qurshab turgan olamdagi hodisalar va narsalarning mohiyatini bilish insonlarga ularning kundalik ishlarida, kosiblik, xunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyatlarida, dexqonchilikda, davlatni boshqarish hamda huquqiy masalalarni hal etishda xizmat qilishi lozim. Ular fanni va ilmiy tuzilmani shaxs shakllanishining muhim omillari sifatida qarar edilar. Fan bilan shug‘ullanish, ilmiy bilimlarni egallash ular tomonidan odamni xaqiqatga etish uchun har doim intilishga undovchi, shuningdek, kishilar o‘rtasida haqiqiy insoniy munosabatlarni o‘rnatishga yo‘llovchi qudratli kuch sifatida tushuntirib, izohlab o‘tiladi. Fanni va

ilmiy tuzilmaniig ushbu vazifasiga berilgan yuqori baho qomusiy olimlarniig pedagogik kategoriyalari maqsadlarining asoslariga, mazmuniga, ta'lim va tarbiyaning uslublariga, prinsiplariga qiziqishlarini belgilab berdi.

Ularning qoidalari va xulosalarining o'ziga xos xususiyatlari ular tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalar fanning o'z mantiqidan ajralgan emas edi. Tarbiya va ta'limning usullari, prinsiplari, mazmuni, maqsadlari kabi masalalar yuzasidan ular o'z fikr-qarashlarini taomil bo'yicha o'zlarining maxsus asarlarida emas, balki fanning bir aniqlangan tarmog'iga oid konkret bilimlarni bayon etish bilan bog'liq ravishda keltirib o'tganlar. Bu yana shu bilan tushuntirilishi mumkin; shu vaqtning ilmiy traktatlari o'quv qo'llanmalari sifatida madrasada, shuningdek, fan bilan mustaqil ravishda shug'ullangan barcha kishilar tomonidan foydalanilgan.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin SHarqda o'z bilim, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiy yirik mutafakkir - «Muallimi soniy» - «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Forobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlagan asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy o'z ishlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga etkazishda o'z o'rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishish to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmlar. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklning osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Forobiy «Inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi», deb hisoblaydi.

Bunga Forobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki, maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni xam aqliy, xam axloqiy- jihatdan kamolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun qoidalarining to'g'ri bo'lib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya etadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta'lim tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim - degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - nazariy fazilatlarni ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadiki: «Ta'lim - degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasida tug'ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish harakat, kasb-hunarga o'rganishdan iboratdir, - deydi.

Forobiyning ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchi shaxsga yakka yondashuvni, uning tabiiy, ruhiy va jismoniy xislatlarini nazarga olish zarurligini ta'kidlaydi. U bu haqda shunday yozadi: «Bu barcha xislatlarini, ularni oliy kamolotga etkazish, yoki kamolotga yaqin bo'lgan darajaga ko'tarishga xizmat kiluvchi vosita yordamida tarbiyalashga muhtojdir... Insonlar turli ilm, hunar faoliyatga moyilligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar».

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l - ta'lim tarbiya yo'li bilan

hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi deydi. Har ikkalasi birlashsa, etuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish usullarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga etkazish maqsadini ko'zlaydi.

SHarqda «SHayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashxur yirik asarlar meros qoldirgan olim. Allomadan keyingi avlodlarga 250 dan ortiq ilmiy asar boy meros bo'lib qoldi.

Abu Ali ibn Sinoning «Al-Qonun», «Donishnoma», «Ash-SHifo», «An-Najot» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zinning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagani, maxsus risolalar talqin etgan. SHuningdek fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilish kerakligini o'rgatadi, deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rgatuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida inson hayoti, uning mexnaga munosabati, faoliyati fakat jamoada amalga oshishi va rivoj topishi

mumkinligini qayd qiladi. Inson uni urab olgan tabiat va tabiiy hodisalardan tashqaridagi narsalarga muxtojlik sezadiki, bu narsalarni faqat mehnat qilish bilan yaratadi.

Ibn Sino bolalarga Qur'oni Karimni va grammatik qoidalarni o'rgatib, dinning maqsadlarini tushuntirib bulgandan sung, ularni ma'lum hunarga jalb etishni, hunar asoslarini egallashlariga e'tibor berishni, ular hunarni egallab, o'z hayotlarini ta'minlay olishlariga e'tibor berishni tavsiya etadi. O'qituvchi bolani hunarga o'rgatishda uning qobiliyati, iste'dodi, imkoniyatlarini e'tiborga olishi kerak, barchani birdaniga bir hunarga o'rgatib bo'lmaydi. Demak, o'qituvchi bolaga ta'lim berishdan avval, uning nimaga e'tibor berishini tekshirib kurishi, sungra unga hunar turini tavsiya etishi kerak.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga ohsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarini mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi deb ta'kidlaydi.

Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, aql-zakovotini ulug'laydi, undagi qudratga ishondi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ'ib qildi.

Ibn Sinoning inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina, emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalagan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o'rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy jaxon fanining taraqqiyotiga ulkan hissa qushgan zur iste'dod egasi va zaxmatkash tadqiqotchi edi. Uning o'lmas ilmiy asarlari jaxon tarixida va taraqqiyotida benixoya yuksak ahamiyatga molikdir.

Beruniy inson barcha mavjudotlardan ustunligini ta'kidlab, insonning asosiy vazifasi mehnat orqali kuzlagan maqsadiga erishish, yaxshilik kurishdir, degan g'oyani ilgari suradi. U mehnatni ulug'larkan, ayniksa, olimlar mehnati tufayli ilmiy yodgorliklar bunyod etilishini ta'kidlaydi.

O'zbek xalkining A.Navoiy o'z asarlarida o'zbek millatiga xos zamonaviy usullardan foydalanib tarbiya jarayonini tashkil etish, milliy tarbiyani amalga oshirishda o'z ma'naviy qadriyatlarimizni o'rni ko'rsatib o'tilgan.

Muqimiy Qo'qonda, shuningdek qo'shni shaharlarga, qishloqlarga sayohat qilgan paytlarida hayotni sinchiklab kuzatgan, uning yo'llarini chuqur o'rgangan. Nohaqlikni ko'rib iztirobga tushgan va unga qarshi o'zining butun shoirlik iste'dodining kuchini ishga solgan. U she'riyatning masnaviy shaklidan keng foydalangan. Binobarin masnaviy shakli qadimdan she'riy dostonlarda, do'stona yozishmalarda qo'llanib kelingan.

Mehnatkashlar muhitida o'sib-ulg'aygan, yuksak axloqiy ideallar ruhida tarbiyalangan, sharq she'riyati mumtozlarining yo'lini tutgan Muqimiy yolg'onchilikka, ikkiyuzlamalikka doimo murosasiz bo'lgan. O'z davrining va o'z muhitining farzandi sifatida ham, qalbida ham e'tiqodli musulmonligicha qolgan.

Muqimiy ijodining ayrim tadqiqotchilariga qo'shilib, uning ot yoki «Arava» turkumlaridagi she'rlarida qirchang'i va qaysar hayvonlar timsoli yoki almisoqdan qolgan shaldiroq arava timsoli orqali jonajon o'lkadagi bilimsizlik va mutaassiblik, nihoyat darajada ijtimoiy-madaniy qoloqlik ifodalangan, deyish mumkin.

Furqat va uning avlodi ichki kurashlar bilan, ishonchsizlik va qo'rquvni, odatlar ta'sirini bartaraf etish va h.k.lardan keyingina ruslarga tegishlicha munosabatda bo'la boshladilar. Inson ko'p yoki ozroq qiyinchilik bilan erishgan va puxta o'ylagan narsalargina uning ma'naviy qiyofasidagi qimmatli va mustaham xususiyatga aylanishi isbotlab o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Xususan ma'naviy dunyosi xalqning fikr va hissiyotini aks ettiradigan katta shoir haqida gap borganida ana shuni unutmazlik yanada muhimdir.

Furqatning yangi Marg'ilondagi bir necha yillik hayoti uning she'riyatdan majburan uzoqlashgan davri bo'ldi. Chunki u o'sha paytda tog'asining do'konida xizmat qilgan, ilohiyotdan saboq olgan, shuningdek, uezd mahkamasida mirzalik vazifasini bajargan.

Lekin, ikkinchi tomondani Furqatning yangi Marg‘ilonda yashagan davri uning hayotida benihoya muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Furqat u erda do‘kondorlikni o‘rganib, shu darajada moddiy mablag‘ to‘plaganki, keyinchalik faqat O‘zbekistoning turli shaharlariga bemalol borib kelishdan tashqari, 90-yillarda Turkiston va Kavkaz orqali Turkiya, Bolgariya, Gretsiya, so‘ngra Arabiston va hindistonga uzoq safar qilgan; u erdan /arbiy Xitoy (Sinszyan yoki Xitoy Turkistoniga yo‘l olib, YOrkent shahriga borgan).

SHunday qilib, Furqat o‘zining turmush tarzi, boyligi, muhiti bo‘yicha boshpanasiz qashshoq Muqimiyga nisbatan ancha yuqori ijtimoiy pog‘onada turgan. Lekin shunga qaramay chinakam do‘stlik va dunyoqarashlarinng yaqinligi ularni birlashtirgan. hayotiy sharoitlar Furqatga avvalo ko‘proq narsalarni ko‘rish va atrofdagi vokealarnn anglash, shu bilan birga ularni shoirning jamiyatdyagi o‘rni va mavqei u yoki bu darajada taqozo etgan nuqtai nazardan kuzatish imkonini yaratdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy har bir muallimni iqtidoriga qarab darslarga tayinlash kerak, deb o‘z davri uchun g‘oyat yangi fikrni bildirgan. YA’ni hozirgidek o‘qituvchilarni matematika, adabiyot, tarix kabi har hil fanlarga ixtisoslashuvidan iborat Turkistondagi maktab va madrasalarga xos bo‘lmagan taklifni o‘rtaga tashlagan. U tobora savodsizlashib borayotgan xalq orasida ziyo nurlarlni tarqatishga harakat qilgan, vatandoshlarini xususan yoshlarni ilmu ma’rifatni egallashga chaqirgan, ayollarling ilm olish huquqini yoqlagan, odamlarni o‘qish-o‘rganishga qiziqtirishning oddiy usullarini izlagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy «Turkiston viloyatining gazetisi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Tujjor», «Samarqand» gazetalarida, «SHo‘ro» va «Oyina» jurnallarida bosilgan maqolalarida yangi usul maktablari ochish, ularda bolalarga dunyoviy fanlarni o‘rgatish g‘oyalarini olg‘a surar ekan, tabiat hodisalarini, Erning yumaloqligi, o‘z o‘qi atrofida aylanishi va muallaq turishini oy va kunning tutilishi va hokazolarni ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning xalqni ma’rifatli qilishdek xayrli ishga butun vujudi bilan berilganining dalili sifatida quyidagi ma’lumot g‘oyat qiziqarlidir. U

1919 yilda safarga chiqqanida uni SHahrisabzda Buxoro amirining amaldorlari qamoqqa oladilar va jadidlikda, bolsheviklarning josusi deb ayblab qattiq azoblaydilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy amirning buyrug‘i bilan qatl qilinadi. U o‘limi oldidan yozgan vasiyatnomasida shunday degan: «Biz o‘z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o‘z xayotimizda nima qilishimiz mumkin bo‘lsa shuni qilganimizni his etish bilan fahrlanganimizdan o‘limni xotirjam kutmoqdamiz. Mumkin qadar ko‘proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq baxt-saodatini ta‘minlash sohasida ishlash bizga eng yaxshi haykal bo‘ladi».

Jamoat va siyosat arbobi shoir va pedagog Abdulla Avloniy Toshkentda, hunarmand oilasida tug‘ildi. Eski musulmon maktabida va madrasada o‘qidi.

Avloniy mehnatkash xalqqa yordamlashishi maqsadida 1908 yilda kambag‘allarning bolalari uchun maktab ochadi va unda ona tilini ta‘limning yangi metodlaridan foydalangan holda o‘qitdi. Uning xalq maorifi sohasidagi ishlari uning yozuvchi va shoir rejisyor-sahnalashtiruvchi hamda teatrdagi iste‘dodli yoshlarning tarbiyachisi sifatidagi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Avloniy 1913 yilda o‘z uyida tashkil etgan xalq teatri katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Avloniy 1917 yilda «Turon» gazetasini chiqara boshlagan, uning sahifalarida xalq maktablari ochish, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va darsliklar nashr etish masalalariga bag‘ishlangan maqolalar e‘lon qilingan. Ayniqsa, o‘zbek qizlarini o‘qitish va tarbiyalash ular uchun maktablar ochish masalalariga alohida e‘tibor berilgan. O‘sha yillarda Avloniy «Adabiyot» darsligining 1-17 kitoblarini, «Turkiy guliston yohud axloq», «Maktab gulistoni», «Mardikorlar ashulasi» kabi asarlarini yozgan hamda nashr ettirgan.

Axmadjon Tabibiy Xiva xoni Sayid-Muhammad Rahimxon Soniy maslaxati bilan «Munisul-ushshoq» nomli devoniga shunday deb yozadi: «Bu faqir qo‘lida jam bo‘lgan kitobning soni besh devondir. Alarnng uchtasi turkin va ikkitasi forsiydir. Birinchisini adolatli shohga hadya etish sababidan «Tuxtafus-Sultol» deb atadim. Ikkinchi dovonga oshiqlar unsiyati sababidan «Munisul-ushshoq» nomi

berildi. Uchinchisiga faqat ishq holatlaridan gapirilgan vajidan «Mir'otus-ishq» deb nom qo'ydim. To'rtinchi devonga oshiqlar o'qib hayron bo'ladilar deb «hayratda oshiqin» deb nom berildi. Beshinchisi bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo'lgani sababidan «Mazharul-ishtiyoq» deb ataladi.

Tabibiy she'riyatiiig g'azal, ruboiy, muxammas va h.k. janrlarida ijod qilgan. Uning qahramonlari to'g'ri fikr, pok muhabbati, odob-axloqi bilan ajralib turadi. Tarbiyaning vatanparvarlik tinchlik, do'stlik, sadoqatlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi prinsiplariga shoir asosiy ahamiyat beradi.

Islom shoir Nazar o'g'li. Xalq og'zaki ijodida shu xalqning hayoti, ruhi orzu-umidlari, insoniy fazilatlari, tarbiyalash uslublari, pedagogik talablari ifodalangan bo'ladi.

O'tmishda «dostonchi shoir» deb atalib, nomlari unchalik keng ma'lum bo'lmagan o'zbek xalq shoirlari, ustozlari obro'-e'tibor topib, xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'lmokdalar.

Islom shoir Nazar o'g'li o'zbek xalq shoirlarining yirik vakillaridan biridir. U Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammad Jomrot o'g'li Po'lkan, Abdulla shoir Nurali o'g'li kabi xalqimiz yaratgan eng yirik asarlarini bizgacha saqlab, kuylab keldi. Islom shoir zamon mehnatkashlar, xalq, bolalar, kelajak avlod haqida, ularning mehnati, intilishi hamda fazilatlari to'g'risida ajoyib qo'shiqlar, dostonlar, she'rlar yaratdi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu mavzuda Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, ahloq-odob haqidagi fikrlari, g'oyalari, pedagogika sohasidagi, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari, O'zbek xalq pedagogikasining yirik namoyandalari bo'lgan buyuk allomalarning asarlari, yangi usul maktablari jadidlar oqimi, ta'lim sohasidagi qo'shilgan hissalar haqida mulohazalar keltirilgan. O'rta asr buyuk donishmandlarining g'oya va qoidalari - hozirga qadar o'zining ahamiyatini yo'qotmagan, o'tkinchi bo'lmagan tarixiy, umuminsoniy boylikdir. Tarixiylik jihatidan ijodiy yondoshilganda ular hozirgi zamon mehnat ta'lim-tarbiyasini boyitishi mumkin.

2.2-§. Tarixiy meroslarda kasb-hunarlarni o'rganish afzalligi haqida.

Ta'lim tizimida umumta'lim maktablari va ularda o'rgatiladigan turli yo'nalishdagi fanlar yosh avlodning shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddati 9 yil qilib belgilandi va bolalarning yosh, individual psixofiziologik, aqliy rivojlanishiga ko'ra 6-7 yoshdan qabul qilinib, bilimlarni o'zlashtirishga asosan 1-9 sinflar, ba'zi hollarda eksternet tipidagi ta'limga ham ruxsat etiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarning mehnat ta'limi tarbiyasi, tayyorgarligi asosan, shu nomdagi o'quv fani negizida olib boriladi.

Mehnat ta'limining ta'lim muassasalari o'quv rejalariga fan sifatida, o'quv predmeti sifatida kiritilganligiga 100 yildan oshganligiga qaramay (1883 y. fan olimi E.Signues) hanuzgacha, butun, yaxlit tizim sifatida to'liq shakllanib, tashkil etilish maqsadlarini va vazifalarini to'liq safarbar eta olgani yo'q. To'g'ri, yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'limi bo'yicha juda yirik, salmoqli tadqiqot ishlari, kuzatishlari olib borilgan. CHet el va Respublikamiz olimlari bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlarida, turli xil materiallar, qo'llanmalar, monografiyalar, dasturlar tayyorlashlarida chop etishlarida yirik natijalarga erishdilar. Respublikamizda yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligining turli sohalarini muammolarni tadqiq etish bilan pedagog olimlardan U.N.Nishonaliev, N.SH.SHodiey, T.T.Magzumov, E.T.CHoriev, A.I.Vorobev, N.S.Sayidaxmedov, YA.Xaydarov, A.R.Xodjaboev, R.X.Jo'raev, O.Xayitov, R.Mavlonova, K.Davlatov, J.Ramizov, K.Mirsaidov, A.Ismoilov qabilar ko'pgina ishlarni olib bordilar, o'z tadqiqotlari natijalarini monografiyalar, qo'llanmalar va tavsiyanomalar ko'rinishlarida chop etdilar.

Mehnat tarbiyasi, qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnatsevarlik xislatlarining shakllanishi masalalarini E.T.CHoriev o'zining «O'zbekiston qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida, o'quvchilar mehnatini tashkil etish, maktabda mehnat tarbiyasining mazmun, shakl, uslublarini yoritib o'tdi. Ushbu qo'llanmada olim respublikamiz xalq xo'jaligining asosiy sohalaridan hisoblangan qishloq xo'jaligida mehnat

qilayotgan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, mahalliy sharoitlarda mehnat tarbiyasi shakllari va mazmuni, ushbu tarbiyaning o'ziga xos yo'nalishlari, shakl va vositalarini etarlicha tahlil etadi. Mehnat tarbiyasining shaxs fazilatlarining shakllanishidagi etakchi o'rnini belgilab berishga muvaffaqiyatli harakat qiladi. Yirik pedagog olim U.N.Nishonalievning asosiy ilmiy ishlari, tadqiqotlarining natijalari oliy ta'lim pedagogikasini, didaktikasini rivojlantirishga qaratilgan. U o'zining «Mehnat ta'limi o'qituvchisi shaxsiyati shakllanishi: istiqbol va muammolari» nomli monografiyasida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisini oliy pedagogik ta'lim tizimida tayyorlash muammolarini tahlil etadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining ushbu sohani tashkil etishda, etakchilik qilishida uning shaxsiy, kasbiy fazilatlarining shakllanganligi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu ta'lim sohasining o'ziga xos murakkabligi, ko'p qirraligiga, amaliyligi, ishlab chiqarishligi va boshqalar shu soha o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi ko'lami sohalarida ko'rinadi. «Mehnat ta'limi o'qituvchisi -tegishli predmetni o'qitish uchun pedagogik ma'lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis bo'lib, umumta'lim maktablari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari va hunar-texnika o'quv yurtlarida doimiy mashg'ulot olib boradi, jumladan, yo'nalishlarda texnik (metallarni, metalmaslarga va yog'ochlarga ishlov berish) IV-VIII sinflarda qishloq xo'jaligi mehnati, IX-X cinflarda metallarga ishlov berish, qishloq xo'jaligi mexanizasiyasi, avtomobil ishlari, chizmachilik va b. (15 b.).

Demak, ushbu fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, mehnat ta'limi sohasi, jumladan uni o'qitadigan o'qituvchi kasbiy faoliyati, bilim ko'nikma va malakalari juda xilma-xildir. Mehnat ta'limining ko'p tarmoqlari, sohalarini juda rang-barang bo'lishi ushbu fan to'g'risida yaxlit, mukamallashgan tushunchalarning bir butun tizim sifatida uyg'unlashmaslikka olib keldi. Chunki, mehnat ta'limining, ya'ni bevosita o'quvchilarning qaysi sinflarda qanday bilimlarni o'zlashtirishlari, Qanday ko'nikmalarni shakllantirishlari va rivojlantirishlarini bir tizimga solish uchun maxsus tadqiqotlar obekti qilib tanlanib, yirik ko'lamda ishlar olib borilishi lozim.

U.N.Nishonalievning oliy o'quv yurtlarida bulg'usi mutaxassislarga pedagogik bilimlar berish, ularning pedagogik mahoratini shakllantirishni mukammallashtirish maqsadida olib borgan kuzatishlari I.I.Tursunov bilan muallifdoshlikdagi «Pedagogik kursi» da mujassamlashgan. Ushbu kursda olimlar bo'lg'usi mutaxassis pedagoglarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarining shakllanish va rivojlantirilishi ta'lim tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy garovi sifatida talqin etadilar.

«Pedagogika fani tomonidan rivojlantirilayotgan tarbiya konsepsiyasida tarbiyaning faqatgina obektiv emas, balki subekti ham hisoblangan insonning o'z faoliyatiga katta o'rin beriladi». (31 b.)

Demak, tarbiya ishida avvalo inson faoliyatida turli fazilatlar shakllanishida faollik etakchi o'rin tutadi. Inson tomonidan hayoti mobaynida o'z oldiga shaxsiy maqsadlarni qo'yishi, ularni bajarishga intilishi, ularni muvaffaqiyatli hal etishi, ularga etishishni o'ziga zarur bo'lgan sifatlarni hosil qilishi ham katta rol o'ynaydi. Demak, ushbu jarayonni boshqarishga hissa qo'shish, ma'lum maqsadga yo'naltirish, uyushgan holda tashkil etish ishlari ko'pincha, oilada ta'lim muassasalarida va jamoatchilik orasida olib borilishida tarbiyachilar, pedagoglar, murabbiylarning o'zlarining ham tarbiyalanishga intilishlari ham muhim o'rin tutadi.

Mehnat va kasb ta'limining muhim sohalaridan hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg'otish, kasbiy axborotlar uyushtirish ishlariga talablarni tayyorlash ishlarini tadqiq etish bilan N.SH.SHodiev shug'ullandi. U o'zining «Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish», «O'quvchilarning kasb tanlash ishlari bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlari qishloq xo'jalik ishchi kasblari» kabi ko'plab monografiya va qo'llanmalarida ushbu soha muammolarini tadqiq qildi.

Olim ko'p yillik kuzatishlari, olib borgan tadqiqot ishlarida mehnat ta'limining bevosita mahsuli bo'lgan, yoshlarning hayotdagi faol o'rinlarini, kelajak hayot yo'lini belgilaydigan turli kasb hunarlarni egallashlarining umumta'lim maktablarida, hunar o'quv yurtlarida, oliygohlardagi o'quv tarbiyaviy

jarayonini takomillashtirishga doir muvaffaqiyatli ishlar olib bordi.

Mehnat ta'limi o'zining ko'pgina jihatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Ana shunday xususiyatlardan biri, ushbu sohaning alohida o'quv-moddiy va metodik ta'minotga egalidir. Mehnat ta'limini samarali o'qitish uchun, uni o'qitadigan mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash uchun ham alohida e'tiborga molik (boshqa fanlardan o'laroq) o'quv uslubiy majmualar lozim bo'ladi. Bulg'usi mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash uchun zaruriy o'quv-metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqarish va uni amalda sinab ko'rish bilan pedagog olim. A.R.Xo'jaboev kuzatishlar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. U o'zining «Mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda o'quv-metodik majmuaning ilmiy-pedagogik asoslari» deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasida ushbu ta'minotni turlarini, tuzilishini, maqsad va vazifalarini yoritdi. Olim majmuani qo'yidagi qismlarga ajratadi: 1.O'quv-ko'rsatmali qo'llanmalar (o'.q.k.), o'quv-metodik adabiyotlar (o'.m.a.), o'quv ishlab chiqarish, laboratoriya jihozlari va materiallar (o'.i.ch.j.), o'qitishning texnik vositalari (o'.t.v.) (17 b.). Demak, umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyatni olib boruvchi o'qituvchilarni tayyorlash uchun ham, alohida tuzilishga mazmunga ega o'quv uslubiy majmua ham zarur bo'ladi.

Yirik pedagog olim R. Mavlonova o'zining qator chop etilgan materiallarini, qo'llanmalarini umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quv-tarbiyaviy jarayonini barkamollashtirish uchun: xususan, bu sinflardagi mehnat ta'limi va tarbiyasi mazmunini darsliklarda namoyon etishni amalga oshirdi. U o'zining «O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning nazariyasi va amaliyoti» deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi ilmiy ma'ruzasida «Mehnat-2», «Mehnat-3», «Mehnat-4» kabi darsliklarida uzluksiz ta'lim tizimida asosiy bo'g'inlardan hisoblangan boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limi darslarining an'anaviy mazmunini belgilashni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da asosiy masalalardan biri hisoblangan kasb hunar ta'limining nazariy-ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha ham respublikamizda ko'pgina pedagogik olimlar shug'ullanadilar. YA.Xaydarov,

R.X.Jo'raev, X.Q.Yo'ldoshev, A.Ismoilovlarning olib borgan tadqiqot ishlari va amaliy faoliyatlari bevosita yoshlarning kasbiy ta'limining turli masalalari echimlarini topishga qaratilgan. Masalan, A.Ismoilovning O'zbekistonda yoshlarning kasbiy ta'limi taraqqiyoti tarixini rivojlanishini tahlil etishga bag'ishlangan ishlari bu sohadagi yirik ishlardan hisoblanadi.

Pedagogik olim, etuk amaliyotchi YA.Haydarovning «O'rta maxsus o'quv yurtlarida umumiy va kasbiy ta'limning birligining ilmiy-pedagogik asoslari» nomli doktorlik dissertatsiyasi ilmiy ma'ruzasida uning bu sohada uzoq yillar mobaynida olib borgan ilmiy-amaliy faoliyati natijasi, xulosalari hisoblanadi. Olim o'rta maxsus o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash jarayonining takomillashtirish maqsadida turli dasturlar, ilmiy risola va maqolalar yaratdi, hamda o'z ilmiy-nazariy g'oyalarini aniq o'quv yurti misolida amaliyotda sinovdan o'tkazdi.

Ushbu mavzuni yoritib borishda turli doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, monografiyalar, ilmiy makolalar, o'quv dasturlari, darsliklar va boshqa ilmiy manbalarni tahlil etib, respublikamizda mehnat va kasb hunar ta'limining nazariy va amaliy masalalarini yorituvchi yirik ilmiy salohiyat mavjudligining guvohi bo'ldik.

Mehnat tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'lim va kasb tayyorgarligi, ta'limning turli muammolarini tadqiq qilish bo'yicha o'ndan ziyod doktorlik va qirqdan ziyod nomzodlik dissertatsiyalar yoqlaganligini hisobga olsak, bu sohadagi ilmiy-nazariy tadqiqot ishlarining ancha keng ko'lamda ekanligi ma'lum bo'ladi. Ammo, bevosita mehnat va kasbiy ta'limning ilmiy-nazariy metodologik, tarixiy poydevori hisoblangan xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish muammolari bilan sanoqli olimlarga shug'ullanayotganliklari ma'lum bo'ldi. Ming yillardan buyon mavjud bo'lgan xalq hunarmandchiligining o'qish o'rganish faoliyatining obektiga aylanishi tabiiy zaruriyatdir. Xalq hunarmandchiligiga bevosita eng yaqin sohalaridan hisoblangan amaliy bezak san'ati va tasviriy san'atni o'qitish muammolari bo'yicha respublikamizda tegishli, bir nafardan iborat fan doktorlari mavjudligi bu sohadagi tadqiqotlarimizni yanada kengaytirish zarurligini keltirib

chiqaradi. Pedagog olim S.S.Bulatov o'zining «O'zbek amaliy bezak san'ati» nomli qo'llanmasida, amaliy bezak san'atining qator sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib o'tdi. Amaliy bezak san'ati va tasviriy san'atning turli sohaları umumlashtirilib, o'quvchilar badiiy madaniyatini asosiy tashkil etish pedagog, tadqiqotchi olim R.Xasanov va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan qator qo'llanma, dastur, darsliklar mazmunida bayon etildi. Professor R. Xasanov o'zining o'zbek maktabida o'quvchilarning badiiy tarbiyasi va ta'limining metodik asoslari nomli monografiyasida tasviriy va amaliy san'atni umumta'lim maktablarida o'qitishning ilmiy-nazariy, metodik muammolarini tadqiq etdi. U o'zining umumta'lim maktablarining turli sinflari uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida qo'llanma va darsliklarda tasviriy va amaliy san'atning mazmunini belgilashni amalga oshirdi.

YUqorida nomlari keltirilgan manbalar va biz taxlil qilgan boshqa materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi mehnat ta'limining poydevoriy zamini sifatida ta'lim tizimida o'rganish va o'rgatish maqsadida jiddiy tadqiqotlar olib borilayotgani yo'q. Xalq hunarmandchiligi yo'nalishlaridagi yumushlar bevosita qo'l mehnati vositasida bajarilishi, O'zbekiston, SHarq xalqlarining (qolaversa, barcha xalqlarning milliy, ma'naviy, tarixiy, madaniy, etnik, mahalliy xususiyatlarini o'zida mujassamlantirganligi va boshqa ko'p jihatlari bevosita mehnat ta'limining o'rganish va o'rgatish obekti bo'la olishiga zamin yaratdi. Mehnat ta'limining yaxlit, mukamallashgan tizimining to'liq yaratilganligi va ushbu ta'limning mavjud an'aviy tuzilishida xalq hunarmandchiligining o'rnini belgilash zaruriyati tadqiqotimizning muhim vazifalaridan birining shakllanishiga olib keldi. Biz tadqiqotimizni olib borish jarayonida mehnat ta'limidan berilayotgan bilimlarni, shakllantirilayotgan ko'nikmalarni bir tizimga solishga va ushbu tizimda xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish mazmunini yoritishni o'rnini belgilashni muhim vazifalardan deb hisobladik.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'quvchilarning turli sohalar bo'yicha bilim olishlariga, kasbiy ko'nikma va bilimlarini shakllantirishlariga,

o‘quv tarbiyaviy tadbirlar tizimiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar ma’lum o‘quv predmetlari tizimini o‘rganish orqali, turli fanlar asoslari, tabiat xalq xo‘jaligi, sanoat qurilish, san’at, qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi boshlang‘ich bilimlarni o‘rganadilar, umummehnat, mehnat va boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiradilar.

O‘zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘quvchilarning mehnat kasbiy tayyorgarligini amalga oshiradigan o‘quv predmetlarining har bir mavzuini, bobini, bo‘limini, mazmunini, maqsadini, tuzilishini yaxshilash uchun zaruriy sabablardan hisoblanadi.

“Insonning o‘zi va o‘z oilasining baxt-saodati yo‘lida mehnat qilishga shaxsan tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi”, -degan edi Prezident I.A. Karimov (“O‘zbekiston - buyuk kelajak sari”, T., “O‘zbekiston”, 1998. 63- bet). Darhaqiqat, bugungi yoshlarni kelajak hayotiga tayyorlash ularga zamon talabiga mos kasb-hunar o‘rgatishni taqozo etadi. Zero: “Jahon bozoridagi integratsiya, ilmiy – texnikaviy taraqqiyot sur‘at... tarbiya, ta’lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishga jamul-jam yondoshishni taqozo qilmoqda”. Hozirgi paytda yoshlarga yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib etishishlariga sharoit yaratmay turib, biz respublika xalq xo‘jaligi, ishlab chiqarish sohalarini tubdan o‘zgartira olmaymiz. CHunki, ishsizlik, maosh kamligi, kadrlar taqchilligi va boshqalar ana shu tufaylidir. Bunda unutilgan yuborilgan xalq an‘analari va udumlarini tiklashga ham e’tibor berish kerak”(Usha manba).

Ko‘rinib turibdiki, kasb-hunar tarbiyasi hozir mamlakatimizda ustivor yo‘nalishga aylanmoqda. “Ta’lim To‘g‘risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ham xuddi shu maqsadga qaratilgan hujjatlardir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda bizga xalq pedagogikasi yordam berishi mumkin. CHunki ajdodlarimiz kasb-hunar tarbiyasiga alohida e’tibor berishgan. Ilmni, kasb-hunarni so‘rab urganish or hisoblanmagan, balki “Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim” hisoblangan.

Qadimgi xalq maqollarida kasb-hunar egallashning afzalligi va ijtimoiy ahamiyati ko‘rsatib utilgan. CHunonchi, “Temirchining ming urgani,

bosqonchining bir urgani” maqolida temirchiga qaraganda bosqonchining zarbi kuchliligi emas, balki hunarsizdan hunarlining zarbi unumli ekanligi aytilsa: “Ko‘ra-ko‘ra ko‘zchil bo‘lasan, so‘zlay-so‘zlay so‘zchil bo‘lasan” maqolida esa, ilmi va kasb-hunarni asta-sekinlik bilan o‘rganib, mahoratli bo‘lish mumkinligiga ishora qilinmoqda. Xalq maqollarida hunarni mashaqqatsiz o‘rganib bo‘lmasligi “Tikansiz gul bo‘lmas, mashaqqatsiz - hunar” maqolida yaqqol ko‘rsatiladi. Hunar boylikka etaklovchi yo‘l ekanligi shunday ta’kidlanadi: “Tekin boylik axtarguncha, o‘zingga bop hunar top!”. Hunarni bilimdon ustozdan o‘rganish lozim, deyiladi xalq maqolida. Aks holda: “Usta ko‘rmagan shogird, har maqomga yo‘rg‘alar”. Har bir ishni shu sohani kasb qilgan kishi bajarsa sifatli bo‘lishi: “CHumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin” maqolida ta’kidlanadi. Hunarning inson hayotidagi ahamiyati makollarda shunday ko‘rsatiladi: “Hunar – zar, hunarsiz - xor”, “Hunarli kishi och qolmas”, “Hunari yo‘q kishining, mazasi yo‘q ishining” kabi va b.. SHuningdek, kasb-hunarni o‘rganishda kechikmaslik zarurligi: “Qirqingda surnaychi bo‘lsang, qachon chalasan?”, yoki: “Qirqida qo‘liga soz olgan, qiyomatda qulog‘ini burar” maqollarida ta’kidlangan.

Kasb-hunar o‘rganishning ijtimoiy ahamiyati ham pedagogika manbalarida alohida ta’kidlab o‘tilgan. Jumladan, Ibn Sinoning “Tadbiri manozil” asarida (“... bir kasb-hunarni o‘zlashtirishga kirishgan bo‘lsin ...”), Kaykovusning “Qobusnoma” sida (“... Ey farzand, ogoh bo‘lgilki, hunarsiz kishi ... hech kishiga naf etqurmas ...” tarzida) kasb-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Pedagogika fanida tarbiyaning vorisiyligi haqidagi tushunchaga asoslanib, kasb-hunar tarbiyasining ham vorisiyligini tushuntirish mumkin. CHunki o‘tmishda xalq o‘farzandlariga ilm va tarbiya berish bilan birga ularga ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan kasb-hunar o‘rgatishni ham zarur hisoblagan. Bu kasb bolaga kelajakda uning o‘zi va oilasi uchun moddiy ta’minot vositasi bo‘lishi bilan birga, xalqi va Vatani uchun ham foyda keltirishi zarurligi ta’kidlangan. O‘tmishda kasb-xunar urganishning ijtimoiy axamiyatini ajdodlarimiz tug‘ri anglab etganlar. Kasb xunarni ota-ona uz farzandlariga, ustozlar esa shogirdlariga meros

koldirganlar. Xozir xam xalq orasida kasb-xunar vorisiyligi davrm etmokda va bu xodjisaning pedagogik axamiyati pasaygan emas.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida farzand dunyoga kelgach, ota-onaning asosiy burchlaridan biri unga yaxshi ism qo`yish, oqil tarbiyachiga berish, sunnat qilish, savod o`rgatish bilan birga unga hunar va kasb o`rgatmoqni meros deb bilgil, deyiladi. SHuningdek: “Hunarsiz kishi bila do`stlik qilmag`il, nedinkim bunday kishi do`stlik va dushmanlikka loyiq ermasdur,”- deydi Kaykovus.

Islom ta`limotining manbalaridan biri hisoblangan “Hadis” larda dehqonchilik kasbi shunday ulug`lanadi: “Ekin ekinglar. Ekin ekish barokatli kasbdir. Ekinlaringni barakasini oshirish uchun qo`riqchilarni ko`paytiringlar”.

YUsof Xos Hojib “Qutadg`u bilig” asarida bilimli bo`lishni ham oliy kasb deb hisoblaydi:

Bilim ma`nosin bil, nima der bilim:

Bilimdan yo`lni chap soldi o`lim.

Bilimsiz barchasi dardmanddir, dardmand,

Bu dard davosiga bilim hunarmand.

Hatto, 3000 yil ilgari yaratilgan “Avesto” da tasvirlangan “Odami Od” hikoyasidagi Odami Od (forscha – “ulkan odam” demak) ham mohir duradgor usta sifatida chinordan kema yasab, odamlarni qutqarib qolgan bo`lsa, bu g`oya dostonlar, aytishuvlar, madhiya va marsiyalarda ham davom etib, hunarli kishining xalq uchun xizmati buyuk va qimmatli axloqiy sifat ekanligi ta`kidlanadi.

Xalq pedagogikasida ta`kidlanadiki, inson uchun va har qanday kasb sohibi uchun yaxshi axloqiy fazilatli bo`lish katta ahamiyatga ega. Aks holda, xalqqa, Vatanga foydasiz kasbning ijtimoiy ahamiyati yo`q. Hunarli kishi, kasb sohibi xalqning koriga yarashi, ommaning mushkulini oson qilishga bel bog`lasa, uning mehnati qadrlanadi. Jumladan, “Alpomish” dagi Hakimbekning jang qilish. kamon otish hunari va boshka ijobiy axloqiy sifatleri xalq tomonidan ulug`lanadi. Kaykovus inson har qanday hunarni egallagan bulsa xam kishi albatta ijobiy axlokli bulishi lozim deb hisoblaydi va bari insonni yumshoq so`zli bo`lishga chaqirib: “Barcha hunarlar ichida eng ulug`i, so`hunaridir”, - deb hisoblaydi.

A. Navoiyning “Farhod va SHirin” dostonida Farhod – donishmand va mamlakat obodonchiligi uchun qayguruvchi muxandisdir: u o‘zining bilim va hunarini jamiyatga bagishladi:

Ki vayronaliklarida yuz guhardu,

Agar qilsam madad voqi’ hunardir

Hunarni asrabon netkumdur oxir?

Olib tuproqqami ketkumdur oxir?

Farhod toj-taxtni nazariga ilmovchi, ilm, san’at va hunarni shoxlikdan a’lo hisoblovchi kamtar bir yigitdir:

Bo‘lub shoxlar eshigining gadoyi

Valekin ul, gadolar xoki poyi,

.....

Ko‘ngul aylabsen ul shohlik bila keng,

Mening olimda u tuprok bila teng.

Navoiy muallimlik kasbini eng ulug kasblar jjumlasiga kiritadi. Muallimga xos sifatlar haqida gapirib, u: “Mudarrisning kerakki g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni ayturg‘a murtakab bo‘lmasa, hundamolig‘ uchun dars havzasin tuzmasa ... va g‘avg‘o ko‘rguzmasa. Jahldin dostoni boshida ... uzun bo‘lmasa ...”, - deb, salbiy sifatlarini tasvirlasa, ijobiy sifati haqida: “... Aning ishi odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas ...” deydi. Demak, kasb-hunar egallashning ijtimoiy ahamiyatiga doir ushbu g‘oyalarni, hozirgi bo‘lajak pedagoglar, albatta, bilishi zarur.

Xalq pedagogikasida tarbiya ijtimoiy ahamiyatga ega yo‘nalish sifatida talkin etiladi. Zero, er yuzidagi mavjud moddiy boyliklar qancha ko‘p bo‘lmasin, undan tejab-tergab foydalanish zarurligi uqtiriladi. SHuningdek, inson hayotda yashar ekan o‘zi, o‘z oilasi, xalqiga moddiy foyda keltirishi zarurligi, moddiy muhtoj bo‘lib qolmaslik choralarni ko‘rishi lozimligini ta‘kidlaydi. CHunki: “Nonsiz yashab bo‘lmas, gapni oshab bo‘lmas”, “Oz bo‘lsa, eplab ko‘r, ko‘p bo‘lsa, seplab ko‘r”, “Taom – tuz bilan, tuz o‘lchov bilan”, “Tejog‘lik ish -

bejog`lik” ekanligini xalq o`z tajribasida sinab ko`rib, kelajak avlodlarga pandnoma sifatida qoldirgan.

“Avesto” da inson o`z hayotini moddiy to`kinlikda o`tkazishi lozim deb ko`rsatiladi. Bu moddiy farovonlik tufayli amalga oshadi. SHundagina inson sihat-salomat bo`ladi, uzoq umr ko`rib, baxtli bo`ladi, deyiladi zardo`shtiylik ta`limotida.

Islomda ham iqtisodiy tarbiyaga jiddiy e`tibor beriladi. Jumladan, “Qur`on” da ta`kidlanishicha, mol—dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol-dunyoga erishgan kishi uni to`g`ri yo`lda sarflashi kerak (“Anfol” surasi, 28-oyat). “Kaxf” surasining 28-oyatida “... Ishi isrofgarchilik bo`lgan kimsalarga itoat etmang!” – deyiladi. Hadislarda ham xayr-saxovatli bo`lib, eb-ichish, lekin isrof qilmaslikka da`vat etiladi.

So`fiylik ta`limotida ham iqtisodiy tarbiya musulmon dini qoidalariga muvofiq targ`ib etiladi. Uning taniqli vakillaridan biri Ahmad YAssaviy nafsga mute bo`lganlarni qoralaydi:

*Nafsdan kechib, qanoatni pasha qilg`an,
Har kim topsa, rozi bo`lib, bo`yi sung`an.
YAxshilarga xizmat qilib, duo olg`an,
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo`q.*

Ibn Sino “Luqmoni Hakimning aziz farzandiga qilgan yuz nasihati” da:... “8. Do`stni foyda va ziyonda imtihon qil”. ...21. «Ishni, xarjni kirimga qarab qil”. Ammo: “...67. Bolalaring nima desa, o`shani qilaverma” slikni, ... 98. Inson o`zini o`ta xor (ham) qilmasligi” kerakligini ta`kidlaydi.

“Qobusnoma”da: “Har narsa qo`lingga tushsa: bir tangadan ikki hissani o`z oilangga xarj etgil, bir hissani qarilig` va ojizlig` vaqtining zaruriy ishlarig`a ehtiyot qilib qo`yg`il”, - deb ta`kidlangan. Demak, viy ugitlar bola tarbiyasi uchun hayotda zarur vositadir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 1997 yildagi Oliy Majlisning IX-sessiyasida so`zlagan «Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevoridir» mavzusidagi ma`ruzasi ta`lim tizimi oldida turgan ulkan vazifalarni belgilab berdi.

Ushbu sessiyada qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'tkazilayotgan tub islohotlarning ustuvor yo'nalishini belgilab berishda alohida o'rin tutadi. SHu boisdan yoshlarning ma'naviy, axloqiy, jismoniy, ruhiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni har tomonlama kasb-hunar tanlashga mustaqil tayyorlash dolzarb muammodir.

YOshlarni kasb-hunar tanlashga tayyorlashda har bir o'g'il-qiz shaxsidagi individual xususiyatlar majmuasini nazarda tutib, ularning ruhiyatidagi tug'ma imkoniyatlar, hayot davomida tarkib topgan va mustahkamlanib, xarakteriga aylanib qolgan ma'lum bir kasb-hunarga nisbatan bo'lgan layoqat, moyillik, iqtidor, iste'dod, qobiliyat, qiziqish va aql-zakovat ustunliklariga qarab kasb-hunar tanlashga yo'naltirish bugungi kunimizning xarakterli belgilaridir.

O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasidagi insoniy fazilatlar bilan ta'limiy xarakterdagi xislatlar majmuasi o'rtasidagi o'zaro moslikning qay darajada tanlayotgan kasb-hunarga tayyorlashda fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, ota-onalar va mahalla faollarining shaxsiy namunasi va hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar kasbga tayyorlashning hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biridir.

Maktab o'quvchilarini kasb-hunarga bo'lgan intellektual va ma'naviy ehtiyojlarini mukammalroq qondirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalariga, kasb-hunar haqida ma'lumot beruvchi o'quv markazlariga, jahon andozalari talablariga javob beradigan zavod va fabrikalarga ekskursiyalar uyushtirish, ilg'or kasb-hunar vakillari bilan uchrashuv kechalari tashkil etish, o'quvchilardagi kasb-hunarga oid tasavvur va tushunchalarini kengaytirishga alohida imkoniyat yo'llarini ochadi.

Tajribali pedagoglar har bir kasb-hunarning ijtimoiy mohiyatini yoshlar tomonidan qanday tushunib anglashlarini, ular kasb-hunar egasi sifatida kimlargadir kerakli odam sifatida, Vatan, el, yurt uchun fidoyi mehnat qilish ularning muqaddas burchlari ekanligini qalbdan his etuvchi hushyor murabbiy, barkamol pedagog sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur.

Pedagog o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ilm-fan uchun chanqoq

bo'lgan, yangiliklarga intilib yashaydigan, milliy g'ururi yuksak, favqulodda holatlarda o'zini namoyon eta biladigan qobiliyatli yoshlarni aniqlashda psixologik, pedagogik tadqiqotlarning ilmiy tavsiyalarini nazarda tutib, tadbirkorlik asosida yondashadigan ijodkor, izlanuvchan, zukko, ziyrak, aql-zakovat egasi bo'lishi lozim.

Qadimdan ota-bobolarimiz bola tarbiyasida mehnatga o'rgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e'tibor berganlar. Farzandlarining layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. SHu o'rinda har bir ota-ona oilada o'z farzandlarining qaysi kasb egasi bo'lishlariga jiddiy e'tibor berishlari zarur. CHunki bolalar biror kasbga qiziqsin, uni egallashga harakat qilishsin. Inson kasb-kori uning husni deyishadi. Mehnatsevarlik xalqimizning asosiy xislatlaridan hisoblanadi. Mehnat tufayli farzandlarimiz mustaqil hayotga erkin inson bo'lib qadam qo'yadilar. Har bir narsani o'zlari hal qilishga o'rganadilar.

Bolada mehnatga munosabat dastavval oiladan boshlanadi. Tabiiyki bunda ota-ona o'z farzandiga namuna bo'lmog'i lozim. Oila a'zolarining mavqei, obro'-e'tibori, ularga nisbatan munosabat mehnat natijalari asosida bo'ladi. Inson mehnati u egallagan kasb-hunar vositasida amalga oshiriladi.

Har bir inson u yoki bu kasbni yoki bir necha kasb-hunarni egallashi mumkin, «Bir yigitga qirq hunar ham oz» degan maqolning mazmunida ham bir necha kasbni egallash hayotiy ehtiyoj ekanligiga ishora etiladi. Har bir kasbning, hunarning o'ziga xos mashaqqati va lazzati bor. Uning mashaqqatini matonat tinimsiz izlanish, sabr-toqat bilan enggan insongina, uning lazzatidan bahra oladi.

Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. SHuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayishi omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi, shaxs sifatida shakllanishi mumkin.

Mehnatga psixologik, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik kabi axloqiy, irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunning 13-moddasida ta'kidlanganidek, «Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir».

Mehnat qilish jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish mehnati ijtimoiy foydali mehnat turida faol ishtirok etadilar va chiniqadilar.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik, yosh davrlari xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi. Barcha qiyinchilik va sinovlarga bardosh bera oladigan yigit-qizlarga mazkur tanlagan kasbga nisbatan yaroqli deb topiladi. Mehnat ta'limi esa xuddi ana shuning amaliy tomonini o'zida aks ettirish imkoniyatiga ega.

Hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi bu qoidaga rioya qilmaydilar. Farzandlari o'qigandan ko'ra o'zi istagan kasb-hunarni egallasa baxtli hayot kechirishini o'ylamaydilar. Ular farzandlari o'rta maktabni bitirishi bilan ularning oliy maktabda tahsil olishlari uchun qobiliyatlari, bilimlari, sabru bardoshlari etarli, yo'qmi, bu bilan hech hisoblashmasdan, bir amallab oliygohlarga o'qishga kiritishga harakat qiladilar. Ko'plar bunga muvaffaq ham bo'ladilar. Lekin keyinchalik buning oqibati nima bo'ladi? Farzandlar yo o'qishning o'ziga xos mashaqqatlariga toqat qila olmay yoki o'qishni davom ettirishga bilim darajalari etmay, tashlab ketadilar. Vaholanki, orada zoe ketgan bir-ikki yil vaqt mobaynida ular o'zlariga munosib biror hunarni egallashlari va hayotda ravon yo'lni topib olishlari mumkin edi.

Demak, xulosa qilib aytganda, yoshlarga bilim berish, ularni kasb-hunarga o'rgatish masalalariga ayniqsa ota-onalar mas'uliyat bilan yondashishlari zarurligi bugungi kun talabidir.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy

qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ijtimoiy-pedagogik masaladir. Bu jarayonda, birinchi navbatda, o'quvchilarning qobiliyatlari va mehnati jamiyat manfaatlariga mos tarzda hisobga olinishi lozim. Insonning ijtimoiy holati dastlab uning ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi o'rnini bilan belgilanadi va bu holning asosiy belgisi mehnatning o'ziga xos xususiyati va ijtimoiy mohiyati hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish tizimi — shaxsga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va prinsiplar, uslub va vositalar birligidir. Kasbga yo'naltirish barcha o'quv-tarbiya ishlari bilan bog'lab olib boriladi. Ongli kasb tanlash o'smirlar etarli darajadagi umumiy va politexnik tayyorgarlikka ega bo'lgan taqdirdagina mumkin bo'ladi. O'quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita, bilvosita) o'quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, suhbat, test, intervyu olish mumkin. Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qaerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni, bilimlarni faqat maktabda zmas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlaridan ham bilib oladilar.

YOshlar o'z oldilarida haqiqiy, keng hayot yo'li ochilishi uchun ko'p kuch-g'ayrat sarflashlari kerak va eng asosiysi o'z ko'ngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali ishni tanlashlari lozim. SHu boisdan ham o'rta maktabni bitirayotgan yigit va qizlar qanday kasb egasi bo'lishi to'g'risida ko'p o'ylaydilar. Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Zero kasb tanlash – jiddiy va mas'uliyatli ishdir. O'z hayot yo'lini jiddiy sur'atda belgilab olish oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. O'quvchi yoshlarning kasb-hunarga layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va

ko'nikmalarini o'rganish lozim.

O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, kasbga yo'naltirish ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun maktab psixologi tuman tashxis markazi bilan hamkorlikda ish olib borsa, ayni muddao bo'ladi.

YUsof Hamadoniy doimo: "Xudoy lomakondur, makon uchun uni xojat yo'q, kasb-hunar farzdur, yaxshi amal iymondandur, iymon toatdur, har qanday toat iymon emas", deb irshod etardilar.

Abdulxoliq G'ijduvoniy vasiyatlarida: "Mashoyixga badaning bilan jismonan xizmat qil!", – deydi. Bahouddin Naqshband ham ustoz Amir Kulol xonaqohida elkasida o'tin tashigan. Xoja Ali Romitaniyning "Do'stimning kelishiga vosita bo'lgan bu hayvondir" deya do'stidan oldin uning ulovini edirib-ichirgan. Bahouddin Naqshbandning uyiga ziyoratchi yo mehmon kelsa, izzat-ikrom ko'rsatardi. Bir safar betob bo'lib qolganida, Buxorodan muridlari kelishgan. Bemorligiga qaramay, mehmonlarni tabassum bilan kutib olgan, hatto mehmonlar uchun muridlari bilan bozordan qo'y olib kelishayotganida hazrat Naqshband qo'yni elkasida ko'tarib kelgan ekan. Bular xojagon-naqshbandiya shayxlarining xalqqa xizmat qilishga ko'rsatgan ahamiyatlaridan dalolat beradi.

e) halol mehnat bilan tirikchilik qilish. "Bir mo'aminning halol mehnat qilmasligi tilanchilikda ilgarilashi demakdir", – degan Hamdun Qassor Naqshbandiylar mehnat qilib kun kechirishgan va topganlarini faqirlarga ehson qilishga ahamiyat berganlar.

Xojagon-naqshbandiya shayxlari ishsiz insonlarni shogirdlikka qabul qilmaganlar, o'zlari albatta biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganlar. Xoja Ali Romitaniy to'qimachi, Muhammad Bobo Samosiy bog'bon, Amir Kulol kulol, Bahouddin Naqshband naqqosh – to'qimachi va chorvador, Amir Kulolning o'g'li Amir Hamza ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror chorvador va savdogar bo'lishgan. Bahouddin Naqshband tavakkul holi halol mehnat qilish bilan birga bo'lmog'i lozim degan edi. Bahouddin Naqshbandning uvaysiy piri Hakim Termiziy (vaf. 320/932 y.) ham mehnat bilan kun kechirishga ahamiyat bergan mutasavviflardan bo'lib, bu mavzuda hatto "Bayon ul-kasb" nomli asar bitgan ekan.

Suhbat naqshbandiyaning bosh shiori – “xilvat dar anjuman” (odamlar ichra xilvatda bo‘lish)ga mos edi. Zero hunar bilan, kasb bilan shug‘ullanib yoki biror ish bilan band bo‘lib ham, Alloh yodini dilda saqlash, bandalikni bir nafas unutmashlik, hamma vaqt, hamma erda, istagan sharoitda o‘zini ogoh deb bilish, qalbdan Alloh nomlarini naqshlash ulug‘ fazilatdir.

“Dast ba koru dil ba YOr” shiori ham aynan shuni taqozo etar edi. Qo‘ling ishda, qalbingda Allohda bo‘lsin,. YA’ni: dunyoni ham, oxiratni ham, unutma. Xuddi shu ma’noda xojagon tariqatining boshqa qoidalari, chunonchi: “safar dar vatan”, “hush dar dam”, “nazar dar qadam” kabi qudsiy talablar botinni poklash, botinan Allohni sevish va shariat yo‘lidan cheklanmaslikni chuqurroq anglash, mustahkamlashga yordam berib kelgan.

Bahouddin Naqshband hazratlari birinchi navbatda amaliy ishlar bilan shug‘ullangan murabbiy shayx bo‘lgan. Ammo ul zotning xojagon tariqati qoidalarini nazariy jihatdan boyitgan fikr-mulohazalari ham ko‘p. Bu haqda manbalarda ma’lumotlar ancha. Bahouddin Naqshband “Hayotnoma”, “Dalil ul-oshiqin”, “Avrod” nomli asarlar yozib qoldirganlar. Biroq bu asarlarning taqdiri hozirgacha bizlarga noma’lum. Faqatgina ul zotning “Al-Avrod” nomli mashhur asarlariga Ali ibn Ahmad al-G‘uriy yozgan sharh - “SHarhi avrod” asari mavjud. Bahouddin Naqshband hazratlari aytgan so‘zlar aksar manoqib va tazkiralarda uchraydi. U kishining muridlari hammasi muayyan kasb egasi bo‘lgan, kasb bilan halol luqma topib eyish talab qilingan.

O‘zbek xalqining qadimiy kasbi dehqonchilik va hunarmandchilik bulgan. O‘zbek tuprogida turli kasb egalari aloxida-aloxida maxalla bulib yashaganlar. Bunda ham, albatta, xikmat bor. Ma’lumki o‘zbek tuproqidagi kulol xind diyorida elga tanilgan mashxur kulolni “ustoz deb ataganlar”. Hunarmandchilikning unlab sohalarida ishlab chikarilgan maxsulotlari xorijga ham chakirilgan. Hozirgi kunda ota-bobolarimizdan meros qolgan hunarmandchilikka e’tibor yanada kuchaymokka.

Tabiiyki, o‘quvchilarda mehnat va kasb-xunarga muxabbat xissi o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Mehnat ta’limi darslarida, darsdan tashkari turli tadbirlada va

tugarak mashgulotlarida jahon xalqlarining shu jumladan, shark xalqlarining asirlar davomida ardoklanib kelayotgan mehnatsevarlik an'analari va kasb-xunar tugrisida kengrok tushuncha berish orkali tarkib toptirish mumkin.

Afsuski, Markaziy osiyo mutafakkirlari va jahon insonparvar – tarbiyashunoslari, marifatparvar shorlarida asrlarida ilgari surilgan mehnat va kasb-xunarning ijtimoyi-tarbiyaviy ahamiyati utmishdagi mazlum xalqning mehnatsevarlik an'analari va mehnat kasb-xunar axlining ijtimoyi-iktisodi axvoli tugrisidagi masalalar hali urganilmagan .

O'zbek xalq mutafakkiri, xalq maorifi arboblari va marifatparvar shoirlarning mehnat,kasb-xunar tugrisidagi kimmatli fikrlarning biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash vositasi sifatida maktablarda keng foydalanish mumkin.

Xalqimiz asrlar davomida yaaratgan sanoksiz durdonalari orasida mehnatsevarlik va kasb-xunar urganish mavzusiga oid maqollar hali salmokli o'rin tutadi. Bularda xalq turli masallar, uxshatishlar vositasi bilan yoshlarni mehnatni sevishga undaydi.

SHuningdek xalq tarbiyashunosligining nodir yodgorliklari sanalgan «Alpomish», «Gurugli», «Rustamxon», «Kunduz bilan YUlduz» kabi boshka dostonlarda ham mehnat axli va xunarmandlarning mujizalar yaratishga kodirligi uluglanadi. Bu dostonlardagi turli xunar egalarining mehnat faoliyatlari tasavirlangan epizodlarni o'kigan kishi xalq memorchilik, nakkoshlik, toshtaroshlik, zargarlik bilan shugullanuvchi kishilarga, dexonchilik, chorvachilik , ovchilik va boshka kasb zaxmatkashlariga katta xurmat bilan karaganligi, bu sohalarda ham qobiliyatli va o'z kasbining mohir ustalari etishib chikishini orzu kilganligini bilib olish qiyin emas.

O'zbek xalq ijodiyoti boyliklri ichida kattalardan bolalarga meros koladigan o'g'itlar, topishmoklar, ertaklar, qo'shiqlar hamda mehnat qo'shiqlaridir masalan:

Urogim chakkon	Urogim olmos
Sen menga yokkan	Urishdan kolmas
Kulginam chakkon	Sira ham tolmas

Mehnatta bokkan.

Urmam bulmas.

Topishmoklar:

O‘zi jonsiz,

Biz bu erda turamiz,

ishga polvon. (ketmon)

Xizmat bulsa kilamiz.

Ikki soxib boshida ,

Ikki kator bulib oamiz. Arra).

Xulosa shuki, o‘zbek xalq ogzaki ijodi materiallarida mehnat tarbiyasi va kasb-xunar talimi xakida gap yuritilar ekan, uni amalga oshirishda xalqimiz kadim zamonlardan beri kullanib kelayotgan va sinovdan utgan, xozirgacha o‘z ximmatini yukatmagan usul va vositalar aks etirilgan. Xalq tarbiyashunosligidagi mehnat tarbiyasi va kasb-xunar talipmini urganish va ularning maktab tarbiyaviy ishlardagi uslub va vsitalar bilan uygunlashtirish tarbiyaviy ishimizning samaradorligini oshirishda muxum omilardan biri sifatida xizmat kilgan bular edi. Buning uchun xalq tarbiyashunosligida mehnat tarbiyasi va kasb-xunar talimiga doir materiallardan dars va darsdan talshkari tarbiyaviy ishlard, bolani mehnat sevarlik ruhida tarbiyalash va kasbga yunaltirish mavzusidagi suxbatlardan foydalanish buyicha metodik tavsiyalar ishlab chikish ayni muddaodir. Xalq tarbiyashunosligidagi mehnat tarbiyasi va kasbga yunaltirish goyalarini yosh avlodimiz ongiga singdirish, ularni xalq ommasining ilgor mehnat va xunarmandchilik an‘analariga befark karamaslikka o‘rgatish o‘qituvchilarning mukaddas buchidir.

Buyuk mutafakkirlarning mehnat tugrisidagi xalq maqollari va xikmatli so‘zlari bolalar ongiga, dunyokarashiga ijobiy ta’sir kursatadi.

Mehnat tarbiyani vujudga keltiradi. In sonning mehnat jarayonida hosil kilgan dastlabki malaka va ko‘nikmalari avloddan-avlodga utib kelgan. Mehnat faoliyati murakablashib, mehnat sohasida tajribalar tuplanib borgan sari, keyinchalik atrof-tevarakdagi xayot tugrisidagi bilimar yigilib borgach, tarbiyaning mazmuni ham o‘zgarib boradi. Tarbiya bilan eng bilimdon kishilar shugullana boladilar. Bolalarga chorvachilik, yani xayvonlarni bokish dexkonchilik kilish kabi kasb-xunarlar urgatila boshladi.

Xalqimiz xalq sifatida shakllanganidan buyon o'z kelajak avlodiga mehnat jarayoni va kasb-hunarlar sir-asrorlarini o'rgatish, ularni biror kasb-hunarni egallashga undash bilan shug'ullanib keladi.

Bu haqda turli xil tarixiy toshbosma, qo'lyozma, yozma manbalarda turli xilda va xilma-xil tillarda ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Ibn Muso al-Xorazmiy, Ibn Ismoil al-Buxoriy, Ibn Iso at-Termiziy, ibn Kassir al-Farg'oniy, Abu Nsr al-Farobiy, Abu rayhon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, YUsof Xos Xojib, Xubaysh ibn Ibrohim ibn Muhammad at-Tiflisi, Maoniy Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Umar ibn Ibrohim Hayomiy, Muslihiddin Sa'diy SHeroziy kabi allomalar o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarining, vatanlarining shuhratini olamga tanitdilar. Ular o'z ijodlarida insoniyat, jamiyat taraqqiyotining turli muammolarini, insonning shakllanishi omillari, ta'lim-tarbiya masalalari, insonning ijobiy va salbiy fazilatlarini, xislatlari, xulqi, odobi, ichki dunyosi, tashqi go'zalligi, mehnati, jumladan kasbi, hunari mashg'ulotlari to'g'risida ham fikr yuritilgan o'lmas asarlar, dostonlar yaratdilar. Umuman olganda, SHarq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyo davlatlari: Movarounnahr, Xuroson, Eron, Turon davlatlari allomalarining madaniy, tarixiy, ma'naviy meroslari, shaxsni shakllantirish muammosiga bag'ishlangan qo'lyozmalari, hunarmandchilik, san'at asarlarini yaratish uslublari va yo'llari haqida yozma manbalari, boshqa xalqlarnikidan o'z mazmuni va mohiyati hamda maqsadi bilan tubdan farq qiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat aqidalari, qadriyatlarini, merosi ruhida shakllantirish ta'limi, tarbiyasi muammosi, insoniyat jamiyati paydo bo'lgandan boshlab, hozirgi kungacha har bir davrning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

YOshlarga turli kasblar, hunarlar o'rgatish har bir davrda, har bir davlatda o'ziga xoslikni namoyon etib kelgan. YOshlarning mehnat, kasblarga tayyorgarligi muammolarini yoritishning turli xil masalalari bo'yicha mamlakatimiz pedago olimlari ham turli xil sohalarni tadqiq qilish bo'yicha shug'ullanmoqdalar.

Bu borada olib borilayotgan tadqiqotimiz davomida ilmiy pedagog adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning

mehnat ta'limi va tarbiyasi berish muammolari bilan R.A.Mavlonova, qishloq maktablarida yoshlarga mehnat tarbiyasini berish masalalari bilan E.T.Choriev, O.Hayitov, o'rta maxsus o'quv yurtlarida kasb ta'limi pedagogik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha YA.Haydarov, hunar ta'lim bilim yurtlarida ishchi kadrlar tayyorlash muammolari bo'yicha P.T.Magzumov, kasb-hunar ta'limini bozor iqtisodiyoti jarayonida tashkil etishni takomillashtirish bilan R.X.Jo'raev, pedagogika oliy o'quv yurtlarida mehnat ta'limi o'qituvchilari tayyorlashning psixologik-pedagogik muammolari va istiqbollarini yoritish bo'yicha U.N.Nishonaliev, talabalarni o'quvchilarning unumli mehnatiga rahbarlikka tayyorlash bilan N.S.Saidahmedov, mehnat va kasb ta'limining metodik ta'minoti bo'yicha A.R.Xo'jaboev, pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarni, o'quvchilarning kasb tanlash ishlarini o'rgatish bilan N.SHodievlar ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Q.O. Mustafoev, K.Davlatov, J.Ramizov, B.Muranov, O.Abduquddusov, I.Karimov, N.Muslimov, A.F.Antonov, U.Tolipov, T.Xolmurodov va boshqa olimlar mehnat, ishlab chiqarish, kasb-hunar pedagogikasining turli masalalari bo'yicha izlanishlar olib bordilar, hamda tadqiqotlari natijalarini monografiya, o'quv qo'llanma, tavsiyanoma, maqolalar tarzida chop ettirdilar hamda dissertatsiyalar qo'rinishlarida muvoffaqiyatli himoya qildilar.

Xalq hunarmandchiligining O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at va mehnat ta'limi fani negizida o'rganila bolanishi yoshlarning mehnat va kasblarga tayyorgarligini milliy, tarixiy, etnografik va mahalliy asosga qo'yilishiga va qayta quriligshiga zamin yaratadi.

Bu muhim sohaning ahamiyati, uni takomillashtirish va rejalashtirish to'g'risidagi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1997 yil 31 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari tug'risida»gi farmoni muhim ahamiyatga molik voqea hisoblanadi. Jumladan, ushbu farmonda shunday deyiladi: «... yoshlarni xalq san'ati ustalarining ko'nikmalariga o'qitib o'rgatish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko'rsatish Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashining viloyatlar, shahar va tumanlar hokimlarining, Respublikasi Vazirlari va idoralarning eng muhim vazifasi deb hisoblansin».

Qarorga muvofiq har yili xalq hunarmandchiligi, badiiy-amaliy bezak san'ati ustalarining ijodini, ish faoliyatlarini yorutuvchi ko'rik, ko'rgazmalarni respublikamizning barcha tuman, shahar, viloyatlarida tashkil etish ajoyib an'anaga aylanib qoldi. Bu an'anaga muvofiq, mamlakatlarimiz bo'yicha o'tkazilgan yakuniy ko'rik-ko'rgazmada g'olib chiqqan mohir ustalar, ustozlar respublika Prezidentining qimmatbaho sovg'asi bilan taqdirlandilar, hamda xalqaro ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish uchun yo'llanma oladilar. Bu hol esa milliy madaniyatimiz, merosimiz hisoblangan xalq hunarmandchiligi, amaliy san'atni bevosita Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan yangidan umumdavlat miqyosida rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilayotganligiga yaqqol dalil bo'la oladi.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atning ko'pdan-ko'p sohalarini bilan uyg'unlashib ketadi. Ammo, tasviriy va amaliy san'at buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining hamda xalq hunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llarini, xususiyatlarini, uxshashliklari va qolaversa, bir-biridan farqlarini ajratish muhimdir, SHuning uchun biz moddiy madaniyatning, madaniyatning ushbu sohalarining mavjud ta'riflarini keltirib, taqqoslab o'tmoqchimiz:

Tasviriy san'at – san'at turi bo'lib, rassomlik, rafika, haykaltaroshlik va foto san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, o'rni bo'lishini o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi.

Amaliy bezakchilik san'ati - tasviriy san'atning eng qadimgi turlaridan biri, amaliy bezakchilik san'ati buyum va materialga, bezak texnikasiga qarab farqlanadi, xalq turmush madaniyatini harakterlaydi. Amaliy bezak san'ati buyumlarning badiiyligi shu buyumlarining amaliy funksiyasi bilan bog'liq. Hunarmandchilik – hunarmand, har xil oddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqarish; shunday mahsulotlartayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi.

Kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, haykaltaroshlik, o‘ymakorlik, toshtaroshlik, ko‘nchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, zargarlik, degrezlik, rextagarlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar ajrala borgan.

Demak, yuqoridagi ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, xalq hunarmandchiligining mohiyati, mazmuni, tuzilishi, xususiyati o‘ziga xosdir.

O‘zbek xalqining shakllanish tarixi bilan uyg‘unlashib ketgan xalq hunarmandchiligi 150 xildan ziyod sohaga ega bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi zamon ta’lim-tarbiya tizimida ulardan deyarli foydalanilmasdan kelishi mavjudmmmmmmmmmmehnat va kasbga yo‘naltirish ta’limi tizimining milliy, mahalliy, etnik, tarixiy xususiyatlaridan ajralib qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Tasviriy va amaliy bezak san’atining me’morchilikning turli sohalarini tadqiq etilishi, yoritilishi masalalari bilan olimlardan G.Pugachenkova, N.CHepeveletskeya, G.Morozova, R.Hasanov, S.S.Bulatov, Q.Qosimov, P.SH.Zohidovlar xalq hunarmandchiligi, amaliy bezak san’ati to‘g‘risida yirik asarlar bitgan bo‘lsalar, tadqiqotchilardan M.X.Mirzahmedov, S.Ergashev, A.Sulaymonov, B.Ortiqov, A.O‘roqov, V.Mazur, A.Turdialiev, I.Karimov, M.YUnusov, A.Rahmatullaev, O.Jamoliddinova va boshqalar ilmiy ishlar olib bordilar.

Xalq ustalaridan usta SH.Murodov, Q.Yo‘ldoshev, N.YOdgorov, A.Hayotov, X.Nosirov, milliy musiqa asboblar ustasi Seyitniyozov, usta K.Burxonov, T.Arslonqulov, M.Usmonov, Z.YUsupov, U.Tohirov, A.Jalilov, K.Haydarov va boshqalarning, milliy meroslarning to‘liq o‘rganilmasdan, yoshlarga o‘rgatilmasdan qolishiga sabab bo‘lmoqda, zero, xalq ustalarining ijodiy meroslari tajribalarining har biri juda ko‘p yillarda, ko‘p mashaqqatlar bilan yaratilgan yirik hunarmandchilik maktablari mohiyatiga egadirlar.

Vatanimizning shuhratini dunyoga mashhur qilayotgan xalq hunarmand ustalari, misgarlardan: Fariqov S. (Farg‘ona), Haydarov A.(Andijon), YUsupov A.(Namangan); pichoqchilardan: Mahmudov B.(Andijon), Malikov A (Namangan), MansurovU (Qo‘qon); ganchkorlardan: Usta SHirin Murodov

(Buxoro), Arslonqulov T. (Toshkent), Quliev A. (Samarqand), Azizov YU (Samarqand); kosibchilikdan: Aliev A. (andijon), Rahmatov M. (Namangan), Ismoilov T. (Samarqand); kulolchilikdan: Matjonov R. (Xorazm), Narzullaev A. (Buxoro): toshtaroshlik bo'yicha xalq ustalaridan: aka-uka Usta Jalil va Bolta Jo'raevlar (Samarqand), Karimbergan Rahmonberganov (Xorazm), Abdurahim Turdiev (Buxoro)larning har birining ijodi, hayoti hunarlari mualliflik maktabi sifatida e'tiborga molikdir.

Respublikamizdagi Xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termez, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, CHust, SHahrisabz va boshqa markazlarning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib, o'ziga xosligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

2.2-§. Tarixiy meroslarda kasb-hunarlarini o'rganish afzalligi haqida.

Ta'lim tizimida umumta'lim maktablari va ularda o'rgatiladigan turli yo'nalishdagi fanlar yosh avlodning shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddati 9 yil qilib belgilandi va bolalarning yosh, individual psixofiziologik, aqliy rivojlanishiga ko'ra 6-7 yoshdan qabul qilinib, bilimlarni o'zlashtirishga asosan 1-9 sinflar, ba'zi hollarda eksternet tipidagi ta'limga ham ruxsat etiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarning mehnat ta'limi tarbiyasi, tayyorgarligi asosan, shu nomdagi o'quv fani negizida olib boriladi.

Mehnat ta'limining ta'lim muassasalari o'quv rejalariga fan sifatida, o'quv predmeti sifatida kiritilganligiga 100 yildan oshganligiga qaramay (1883 y. fan olimi E.Signues) hanuzgacha, butun, yaxlit tizim sifatida to'liq shakllanib, tashkil etilish maqsadlarini va vazifalarini to'liq safarbar eta olgani yo'q. To'g'ri, yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'limi bo'yicha juda yirik, salmoqli tadqiqot ishlari, kuzatishlari olib borilgan. CHet el va Respublikamiz olimlari bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlarida, turli xil materiallar, qo'llanmalar, monografiyalar, dasturlar tayyorlashlarida chop etishlarida yirik

natijalarga erishdilar. Respublikamizda yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligining turli sohalari, muammolarni tadqiq etish bilan pedagog olimlardan U.N.Nishonaliev, N.SH.SHodieva, T.T.Magzumov, E.T.CHoriev, A.I.Vorobev, N.S.Sayidaxmedov, YA.Xaydarov, A.R.Xodjaboev, R.X.Jo'raev, O.Xayitov, R.Mavlonova, K.Davlatov, J.Ramizov, K.Mirsaidov, A.Ismoilov qabilar ko'pgina ishlarni olib bordilar, o'z tadqiqotlari natijalarini monografiyalar, qo'llanmalar va tavsiyanomalar ko'rinishlarida chop etdilar.

Mehnat tarbiyasi, qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnatsevarlik xislatlarining shakllanishi masalalarini E.T.CHoriev o'zining «O'zbekiston qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida, o'quvchilar mehnatini tashkil etish, maktabda mehnat tarbiyasining mazmun, shakl, uslublarini yoritib o'tdi. Ushbu qo'llanmada olim respublikamiz xalq xo'jaligining asosiy sohalaridan hisoblangan qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, mahalliy sharoitlarda mehnat tarbiyasi shakllari va mazmuni, ushbu tarbiyaning o'ziga xos yo'nalishlari, shakl va vositalarini etarlicha tahlil etadi. Mehnat tarbiyasining shaxs fazilatlarining shakllanishidagi etakchi o'rnini belgilab berishga muvaffaqiyatli harakat qiladi. Yirik pedagog olim U.N.Nishonalievning asosiy ilmiy ishlari, tadqiqotlarining natijalari oliy ta'lim pedagogikasini, didaktikasini rivojlantirishga qaratilgan. U o'zining «Mehnat ta'limi o'qituvchisi shaxsiyati shakllanishi: istiqbol va muammolari» nomli monografiyasida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisini oliy pedagogik ta'lim tizimida tayyorlash muammolarini tahlil etadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining ushbu sohani tashkil etishda, etakchilik qilishida uning shaxsiy, kasbiy fazilatlarining shakllanganligi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu ta'lim sohasining o'ziga xos murakkabligi, ko'p qirraligiga, amaliyligi, ishlab chiqarishligi va boshqalar shu soha o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi ko'lami sohalarida ko'rinadi. «Mehnat ta'limi o'qituvchisi -tegishli predmetni o'qitish uchun pedagogik ma'lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis bo'lib, umumta'lim maktablari, o'quv- ishlab chiqarish kombinatlari va hunar-texnika o'quv yurtlarida doimiy mashg'ulot

olib boradi, jumladan, yoʻnalishlarda texnik (metallarni, metalmaslarga va yogʻochlarga ishlov berish) IV-VIII sinflarda qishloq xoʻjaligi mehnati, IX-X cinflarda metallarga ishlov berish, qishloq xoʻjaligi mexanizasiyasi, avtomobil ishlari, chizmachilik va b. (15 b.).

Demak, ushbu fikr-mulohazalardan koʻrinib turibdiki, mehnat taʼlimi sohasi, jumladan uni oʻqitadigan oʻqituvchi kasbiy faoliyati, bilim koʻnikma va malakalari juda xilma-xildir. Mehnat taʼlimining koʻp tarmoqlari, sohalarini juda rang-barang boʻlishi ushbu fan toʻgʻrisida yaxlit, mukamallashgan tushunchalarning bir butun tizim sifatida uygʻunlashmaslikka olib keldi. Chunki, mehnat taʼlimining, yaʼni bevosita oʻquvchilarning qaysi sinflarda qanday bilimlarni oʻzlashtirishlari, Qanday koʻnikmalarni shakllantirishlari va rivojlantirishlarini bir tizimga solish uchun maxsus tadqiqotlar obekti qilib tanlanib, yirik koʻlamda ishlar olib borilishi lozim.

U.N.Nishonalievning oliy oʻquv yurtlarida bulgʻusi mutaxassislarga pedagogik bilimlar berish, ularning pedagogik mahoratini shakllantirishni mukammallashtirish maqsadida olib borgan kuzatishlari I.I.Tursunov bilan muallifdoshlikdagi «Pedagogik kursi» da mujassamlashgan. Ushbu kursda olimlar boʻlgʻusi mutaxassis pedagoglarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarining shakllanish va rivojlantirilishi taʼlim tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy garovi sifatida talqin etadilar.

«Pedagogika fani tomonidan rivojlantirilayotgan tarbiya konsepsiyasida tarbiyaning faqatgina obektiv emas, balki subekti ham hisoblangan insonning oʻz faoliyatiga katta oʻrin beriladi». (31 b.)

Demak, tarbiya ishida avvalo inson faoliyatida turli fazilatlar shakllanishida faollik etakchi oʻrin tutadi. Inson tomonidan hayoti mobaynida oʻz oldiga shaxsiy maqsadlarni qoʻyishi, ularni bajarishga intilishi, ularni muvaffaqiyatli hal etishi, ularga etishishni oʻziga zarur boʻlgan sifatlarni hosil qilishi ham katta rol oʻynaydi. Demak, ushbu jarayonni boshqarishga hissa qoʻshish, maʼlum maqsadga yoʻnaltirish, uyushgan holda tashkil etish ishlari koʻpincha, oilada taʼlim muassasalarida va jamoatchilik orasida olib borilishida tarbiyachilar, pedagoglar,

murabbiylarning o'zlarining ham tarbiyalanishga intilishlari ham muhim o'rin tutadi.

Mehnat va kasb ta'limining muhim sohalaridan hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg'otish, kasbiy axborotlar uyushtirish ishlariga talablarni tayyorlash ishlarini tadqiq etish bilan N.SH.SHodiev shug'ullandi. U o'zining «Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish», «O'quvchilarning kasb tanlash ishlari bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlari qishloq xo'jalik ishchi kasblari» kabi ko'plab monografiya va qo'llanmalarida ushbu soha muammolarini tadqiq qildi.

Olim ko'p yillik kuzatishlari, olib borgan tadqiqot ishlarida mehnat ta'limining bevosita mahsuli bo'lgan, yoshlarning hayotdagi faol o'rinlarini, kelajak hayot yo'lini belgilaydigan turli kasb hunarlarni egallashlarining umumta'lim maktablarida, hunar o'quv yurtlarida, oliygohlardagi o'quv tarbiyaviy jarayonini takomillashtirishga doir muvaffaqiyatli ishlar olib bordi.

Mehnat ta'limi o'zining ko'pgina jihatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi. Ana shunday xususiyatlardan biri, ushbu sohaning alohida o'quv-moddiy va metodik ta'minotga egalidir. Mehnat ta'limini samarali o'qitish uchun, uni o'qitadigan mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash uchun ham alohida e'tiborga molik (boshqa fanlardan o'laroq) o'quv uslubiy majmualar lozim bo'ladi. Bulg'usi mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash uchun zaruriy o'quv-metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqarish va uni amalda sinab ko'rish bilan pedagog olim. A.R.Xo'jaboev kuzatishlar, ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. U o'zining «Mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda o'quv-metodik majmuaning ilmiy-pedagogik asoslari» deb nomlangan doktorlik dissertasiyasida ushbu ta'minotni turlarini, tuzilishini, maqsad va vazifalarini yoritdi. Olim majmuani qo'yidagi qismlarga ajratadi: 1.O'quv-ko'rsatmali qo'llanmalar (o'.q.k.), o'quv-metodik adabiyotlar (o'.m.a.), o'quv ishlab chiqarish, laboratoriya jihozlari va materiallar (o'.i.ch.j.), o'qitishning texnik vositalari (o'.t.v.) (17 b.). Demak, umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyatni olib boruvchi o'qituvchilarni tayyorlash uchun ham, alohida tuzilishga mazmunga ega o'quv uslubiy majmua

ham zarur bo‘ladi.

Yirik pedagog olim R. Mavlonova o‘zining qator chop etilgan materiallarini, qo‘llanmalarini umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonini barkamollashtirish uchun: xususan, bu sinflardagi mehnat ta‘limi va tarbiyasi mazmunini darsliklarda namoyon etishni amalga oshirdi. U o‘zining «O‘zbekistonda boshlang‘ich ta‘limning nazariyasi va amaliyoti» deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi ilmiy ma‘ruzasida «Mehnat-2», «Mehnat-3», «Mehnat-4» kabi darsliklarida uzluksiz ta‘lim tizimida asosiy bo‘g‘inlardan hisoblangan boshlang‘ich sinflarda mehnat ta‘limi darslarining an‘anaviy mazmunini belgilashni muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da asosiy masalalardan biri hisoblangan kasb hunar ta‘limining nazariy-ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha ham respublikamizda ko‘pgina pedagogik olimlar shug‘ullanadilar. YA.Xaydarov, R.X.Jo‘raev, X.Q.Yo‘ldoshev, A.Ismoilovlarning olib borgan tadqiqot ishlari va amaliy faoliyatlari bevosita yoshlarning kasbiy ta‘limining turli masalalari echimlarini topishga qaratilgan. Masalan, A.Ismoilovning O‘zbekistonda yoshlarning kasbiy ta‘limi taraqqiyoti tarixini rivojlanishini tahlil etishga bag‘ishlangan ishlari bu sohadagi yirik ishlardan hisoblanadi.

Pedagogik olim, etuk amaliyotchi YA.Haydarovning «O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida umumiy va kasbiy ta‘limning birligining ilmiy-pedagogik asoslari» nomli doktorlik dissertatsiyasi ilmiy ma‘ruzasida uning bu sohada uzoq yillar mobaynida olib borgan ilmiy-amaliy faoliyati natijasi, xulosalari hisoblanadi. Olim o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash jarayonining takomillashtirish maqsadida turli dasturlar, ilmiy risola va maqolalar yaratdi, hamda o‘z ilmiy-nazariy g‘oyalarini aniq o‘quv yurti misolida amaliyotda sinovdan o‘tkazdi.

Ushbu mavzuni yoritib borishda turli doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, monografiyalar, ilmiy makolalar, o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa ilmiy manbalarni tahlil etib, respublikamizda mehnat va kasb hunar ta‘limining nazariy va amaliy masalalarini yorituvchi yirik ilmiy salohiyat

mavjudligining guvohi bo'ldik.

Mehnat tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'lim va kasb tayyorgarligi, ta'limning turli muammolarini tadqiq qilish bo'yicha o'ndan ziyod doktorlik va qirqdan ziyod nomzodlik dissertasiyalar yoqlaganligini hisobga olsak, bu sohadagi ilmiy-nazariy tadqiqot ishlarining ancha keng ko'lamda ekanligi ma'lum bo'ladi. Ammo, bevosita mehnat va kasbiy ta'limning ilmiy-nazariy metodologik, tarixiy poydevori hisoblangan xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish muammolari bilan sanoqli olimlarga shug'ullanayotganliklari ma'lum bo'ldi. Ming yillardan buyon mavjud bo'lgan xalq hunarmandchiligining o'qish o'rganish faoliyatining obektiga aylanishi tabiiy zaruriyatdir. Xalq hunarmandchiligiga bevosita eng yaqin sohalaridan hisoblangan amaliy bezak san'ati va tasviriy san'atni o'qitish muammolari bo'yicha respublikamizda tegishli, bir nafardan iborat fan doktorlari mavjudligi bu sohadagi tadqiqotlarimizni yanada kengaytirish zarurligini keltirib chiqaradi. Pedagog olim S.S.Bulatov o'zining «O'zbek amaliy bezak san'ati» nomli qo'llanmasida, amaliy bezak san'atining qator sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib o'tdi. Amaliy bezak san'ati va tasviriy san'atning turli sohaları umumlashtirilib, o'quvchilar badiiy madaniyatini asosiy tashkil etish pedagog, tadqiqotchi olim R.Xasanov va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan qator qo'llanma, dastur, darsliklar mazmunida bayon etildi. Professor R. Xasanov o'zining o'zbek maktabida o'quvchilarning badiiy tarbiyasi va ta'limining metodik asoslari nomli monografiyasida tasviriy va amaliy san'atni umumta'lim maktablarida o'qitishning ilmiy-nazariy, metodik muammolarini tadqiq etdi. U o'zining umumta'lim maktablarining turli sinflari uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlarida qo'llanma va darsliklarda tasviriy va amaliy san'atning mazmunini belgilashni amalga oshirdi.

YUqorida nomlari keltirilgan manbalar va biz taxlil qilgan boshqa materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi mehnat ta'limining poydevoriy zamini sifatida ta'lim tizimida o'rganish va o'rgatish maqsadida jiddiy tadqiqotlar olib borilayotgani yo'q. Xalq hunarmandchiligi yo'nalishlaridagi yumushlar bevosita qo'l mehnati vositasida bajarilishi, O'zbekiston, SHarq

xalqlarining (qolaversa, barcha xalqlarning milliy, ma'naviy, tarixiy, madaniy, etnik, mahalliy xususiyatlarini o'zida mujassamlantirganligi va boshqa ko'p jihatlarini bevosita mehnat ta'limining o'rganish va o'rgatish obekti bo'la olishiga zamin yaratdi. Mehnat ta'limining yaxlit, mukamallashgan tizimining to'liq yaratilganligi va ushbu ta'limning mavjud an'aviy tuzilishida xalq hunarmandchiligining o'rnini belgilash zaruriyati tadqiqotimizning muhim vazifalaridan birining shakllanishi

Respublikamizda yoshlarning mehnat va kasb tayyorgarligini, jumladan, milliy lashtirishda, xalq hunarmandchiligi asosiga qaytadan bunyod qilishda hamda bu jarayonni hozirgi zamon talablari asosida amalga oshirishda quyidagi muammoli, ziddiyatli holatlar yuzaga keladi.

- mustaqil davlatimizning ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy strukturasi bilan mehnat va kasbga tayyorlashning mazmuni maqsadi, ilmiy-uslubiy, moddiy-texnik ta'minoti orasidagi mantiqiy bog'liqligi zamon talabi darajasida emasligi;

- ilmiy-texnik o'zgarishlar, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasi, zamonaviy xo'jalik yuritish shakllari bilan ularning milliy, tarixiy uyg'unlashuvi amalda o'z aksini topmaganligi;

- yoshlarning mehnat va kasbga tayyorgarligini amalga oshirishning asosiy qismi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini bilan uzluksiz ta'limning boshqa bo'g'inlari, bosqichlari o'rtasida uzviylik va o'zaro bog'liqlikning ta'minlanganligi;

- yoshlarning mehnat va kasbga tayyorgarligining an'anaviy mazmuni, maqsadi va tuzilishida respublikamizning milliy, etnik, mahalliy, tarixiy xususiyatlari va sharqona tafakkur mezonlari aks etmaganligi.

- O'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarlik tizimida milliy va ma'naviy qadriyatlarni, moddiy madaniyatimiz asoslarini o'rganishda zaruriy ehtiyojning mavjudligi, ammo bu ehtiyojning ta'lim-tarbiya tizimida to'liq o'z o'rnini topmaganligi;

- Umumta'lim maktablari va yangi turdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatida uzviylikning o'zaro aloqaning ta'minlanganligi vash u kabilar ilmiy tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi. Muammoning nazariy va amaliy jihatdan etarlicha ishlanmaganligi hamda yangicha mazmun va shakl vositalarning ta'lim-tarbiya jarayonida to'liq yoritilmaganligi tadqiqotimizning mavzusini quyidagicha tanlashimizga imkon yaratdi:

Tajriba – sinov ishlarining borishi va olingan natijalar tahlili.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda bir necha umumta'lim maktablari va Samarqand shahridagi 1-son pedagogika kollejining mehnat ta'limi bo'limida pedagogik amaliyot davrida va boshqa davrlarda tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Kollejning o'qituvchilari Kushmuradova M., Yuldosheva G., Rasulova M., Jalilov J., Komilov J., Dustmurodova U. kabi ukituvchilarning 201, 202, 101, 215, 203, 301, 302 – guruxlarda xalq hunarmandchiligi (kashtachilik)ga va turli materiallar bilan ishlashga bagishlangan dars mashg'ulotlari kuzatildi. Samarqand shahridagi 55 va 63 – sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-9 sinflaridagi mehnat ta'limi o'quv kursini ba'zi mavzulari, 2-3 chorakda mo'ljallangan bo'limlari bilan bevosita tanishildi, ya'ni bevosita darslar kuzatili, amaliyotchi-o'qituvchi (talaba) sifatida biz tomondan ishlanmalar. Tarkatma materiallar tayyorlandi, tajriba-sinov materiallari darsi sifatida o'zimiz ham o'tdik.

Tajriba sinovlardan ma'lum bo'ldiki, metalga, yog'ochga, metalmaslarga ishlov berish, qishloq xo'jaligi asoslari – o'g'il bolalar uchun, gazlamalarga va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish (pazandachilik) - qiz bolalar uchun o'tilayotganligi ma'lum bo'ldi. Xalq hunarmandchiligi bo'limidan esa o'g'il bolalarga metal, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik bo'limlaridan ba'zi mavzular orqali o'tilsa, qiz bolalarga kashtachilik, zardo'zlik, zargarlik, gilamchilik, quroqchilik, milliy pazandachilik kabi bo'limlaridan foydalanilmoqda. Ko'pchilik hollarda sinflar o'g'il-qiz bolalar kichik guruhlariga ajratilgan holda o'qitiladi.

SHaroit yaratilgan joylarda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha ushbu amaliy mehnat mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish mumkin. YAratiladigan sharoitlarga quyidagilar kiradi: har bir talabaga tegishli ish o‘rinlari, materiallar, jihozlar, asbob-uskunalar, qurilmalar, har xil ish turlari, talabalar miqdori, murabbiylar taqsimoti va direktor buyrug‘i hisoblanadi.

Tajriba-sinovlarni olib borishda quyidagi kishilar qatnashdilar:

1. Ta‘lim muassasalari rahbarlari, maktab, kollej direktorlari;
2. O‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari (muovnlari);
3. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari;
4. Guruhlar rahbarlari (murabbiylari);
5. Amaliyotchilar – mehnat ta‘limi yo‘nalishi 4-bosqich talabalari (401, 402, 403 guruhlar).
6. Tanlangan tajriba-sinov guruhlarida (bizning tajribada 301, 302 - guruxlar);

Tajriba-sinovlari vaqtida nazorat guruxlariga qo‘shimcha materiallar berilmadi, tabiiy holda oddiy sharoitlarda darslar qanday tashkil etilsa, shunday tashkil etilib boriladi, faqat, o‘quvchilar o‘zlashtirishlari kuzatiladi, qiyoslanadi. Tajriba-sinov guruhlarida esa qo‘shimcha tarqatma va ko‘rsatmali materiallar tarqatildi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanildi, testlar, anketalar, varaqalar, imtihon biletleri tashkil etildi, ba‘zi hollarda qo‘shimcha mashg‘ulotlar ham olib borildi.

SHunga ko‘ra, 301 guruxdagi 26 nafar talabadan 25 nafari, 302 guruxdagi 25 nafar talaba, 4-5 nafar o‘qituvchilar, 10-12 nafar talabalar tajriba-sinov ishlarida qatnashdilar.

Tajriba-sinovlar davrida turli xil og‘zaki so‘rovlar, yozma so‘rovnomalar, anketalar, sinovlar biletleri, testlar, muammoli topshiriqlar va boshqa xil tarqatmali materiallar tarqatildi.

Masalan: «Kaysi buyuk mutafakkirning mehnatga bagishlangan asarini bilasiz?», «A.Navoiyning kaysi asarida mehnat ulug‘lanadi?» degan savollarga tajriba – sinov va nazorat guruhlaridan olingan javoblar quyidagicha bo‘ldi:

№	Javoblar turlari	Javoblar soni	
		Tajriba-sinov guruxi (301)	Nazorat guruxi (302)
1	To'g'ri javoblar	15	12
2	Noaniq javoblar	4	6
3	Notug'ri javoblar	6	7
Jami		25	25

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki 301 – tajriba sinov guruxidagi 25 ta berilgan savollardan to'g'ri javoblar 15 ta (60%) ni, to'liq va aniq bo'lmagan javoblar 4 ta (18%)ni, notug'ri javoblar 6 ta (24%)ni tashkil etadi. Bu hol shuni ko'rsatadiki tajriba-sinov guruhida o'quvchilar bilan qo'shimcha axborot manbalari ishlangan, berilgan nazorat guruhida esa olingan javoblar ko'rinishlari quyidagicha: to'g'ri javoblar 12ta (48%), to'liq va aniq bo'lmagan 6ta (24%)ni, notug'ri javoblar esa 7ta (28%) ni tashkil etadi. Bu esa nazorat guruhida o'qish jarayoni tabiiy ravishda olib borilganligi, o'quvchilarga qo'shimcha axborot va ma'lumot manbalari berilmaganligi, shuning uchun tug'ri javoblar soni tajriba-sinov guruhinikiga nisbatan kamroq bo'lganligi ma'lum bo'ldi.

«XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoda feodal ishlab chikarish munosabatlarning tarakkiy etishi kaysi kasb va hunar rivojiga ta'sir etdi?» degan savolga ko'pchilik hollarda «xunarmandchilik», «binokorlik» deb javob berganlar: Ularning javoblari tahlili quyidagicha bo'ldi:

Javoblar tahlili

№	Javoblar turlari	Olingan javoblar 52 ta	
		Tajriba-sinov sinfi (301)	Nazorat sinfi (302)
1	To'g'ri javoblar	14 (53%)	11 (42%)
2	Noaniq javoblar	5 (19%)	6 (23%)
3	Notug'ri javoblar	8 (31%)	9 (35%)
Jami		26 (100%)	26(100%)

Ukuv kursi mavzularidan «Ilm va xunarning xosiyati xakida donolar ugitalari»; «Xalk xunarmand ustalarining ish namunalariga karab plastilin yoki loydan uyinchoklar yasash»; «Ustoz va shogird mavzusi buyicha «Savob ishni xar kim xar kuni kilishi kerak»; «Farovonlik xayot - kurki» mavzulari kiritilgan. SHuning uchun, mehnat ta'limida talabalarga O'rta Osiyoda kasb-xunarning, xalk xunarmandchiligining rivojlanish tarixidan ma'lumot berilsa va o'rganilsa maksadga muvofik bulardi. xalk milliy xunarmandchiligining turli soxalaridan ma'lumot berilsa va o'rganilsa, ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma, malakalar, tushunchalar va tasavvurlar, axborot va ma'lumotlar talabalarga etkazilsa maksadga muvofik bulardi

Mehnat ta'limidan dars berayotgan o'qituvchi-ustozlar, murabbiylar ham imkoniyat darajasida barcha yo'nalishlarni o'qitish, o'rgatish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi lozim bo'ladi.

XULOSA

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy predmetlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta'lim to'larisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

O'tkazgan kuzatishlarimizdan, tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'lishicha, usib kelayotgan yosh avlodni milliy an'analar, qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlardan biri bo'lmog'i lozim. O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida mehnat va kasb ta'limining rivojlanishi tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda aks ettirish darajasi haqida xam talablar qo'yilishi o'rinli bo'ladi. Bizningcha, bu jarayonda

tarixiy merosimiz, milliy qadriyatlar kasb-hunar ta'limda ko'proq aks etishi, ayniqsa unda milliy ruhiyat tuyg'ularini shakllantirishga diqqatning qaratilishi muxim deb xisoblaymiz.

Manbalarda yozilishicha kishilik jamiyati paydo bo'lgach, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni quyi avlodga o'rgatish ehtiyoji tugiladi. Ta'lim tarbiya bilan shugullanuvchi tarbiyachilar kasb-hunar xomiylari sifatida ajralib chiqa boshladi. Ularning ta'lim - tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plangan tajribalaridan unumli foydalanishlari vazifalari vujudga kelishiga olib keldi. SHunday qilib, ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari tarixiy ildizlarga borib takaladi. Demak, o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun madani va ma'naviy boyligimizga xurmat va gurur xissini shakllantirishimiz zarur.

Buning uchun milliy merosimiz sanalmish xalq hunarmandchiligi, mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limining tarixiy ildizlariga, xususiyatlariga, amalga oshirish jarayoniga bevosita mos keladigan jihatlarni qidirib topish kerak bo'ladi. Masalan, bu sohalarni amalga oshirish jarayonining asosan qo'l mehnatiga asoslanganligi, moddiy xom ashyo ta'minotining qulayligi, asbob, uskuna, jihozlar va moslamalar bilan ta'minlashning mahalliy sharoitlarida qiyin emasligi deyarli barcha davrlarida murakkab bo'lgan ta'minot muammosining osonlikcha hal etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, turli hunarlarni o'rgatish jarayonida ustalar o'z shogirdlariga avvalo, odob-axloq, insoniy fazilatlarni – kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish fazilatlarni singdirishni, ya'ni hunarmand-shogird odobini o'rgatishni asosiy maqsad qilib qo'yilgan. CHunki, hunarmand ustalar buyumlarni tayyorlashning barcha bosqichlarida ham turli toifadagi kishilar bilan hunarmandchilik texnologiyasining qiyidagi bosqichlarida: a) buyumlarni ishlov berishga tayyorlash; b) asosiy ishlov berish; d) pardozlash; e) tayyorlangan buyumlarni sotuvga chiqarishda mijozlar, xaridorlar bilan turli muomala munosabat odobida bo'ladilar.

Demak, talaba yoshlarni mexnat va kasb-xunar ta'limi hunarmandchilik sir-asrorlari bilan tanishtirishda, avvalo ma'lum doirada odob-

axloq qoidalar bilan tanishtirish, tarbiyalash muhim ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Biz, tadqiqotlarimizni o'tkazish jarayonida o'quvchilarni xalq hunarmandi sifatida shakllantirishda sinf-dars mashg'ulotlarining pedagogik imkoniyatlari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlardan to'garaklarni mazmunan takomillashtirish, yangilash muammolariga ham e'tiborni qaratdik.

TAKLIF VA TAVSIYALAR:

Urta SHark mutaffakkirlarining ta'limotida milliy va umuminsoniy kadriyatlarimizdan hisoblangan kasb hunarning kelib chikishi va tarixi xakida yosh avlodga o'rganish va o'rgatishga bag'ishlangan tadqiqodimiz jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Xalqimizning tarixi, o'tmishi, taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan mexnat va kasb xunarni, milliy qadriyatlarimizni manbalar misolida chuqur va atroflicha o'rganmoq lozim. Biz tarixiy ketma-ketlikda yoritishni maksad kilib oldik.

2. Mexnat va kasb ta'limini rivojlanishi ta'lim va tarbiya tizimining tarixiy ildiziga tayangan holda o'rganish va o'rgatish eng qulay didaktik tizimlardan hisoblanadi.

3. O'quvchilarni mehnat va kasblarga tayyorlash jarayonida xalq hunarmandchiligining tarixiy ildizlarini o'rganishda, avvalo, o'quv-dars jarayonida, so'ngra esa, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda mazmunan va shaklan yangilanishi lozim. Biz tarixiy manbalar sifatida Urta SHark mutaffakkirlarining ta'limotini nazariy mashg'ulotlar jarayonida, to'garaklarda tashkil etishni tanladik.

4. Urta SHark mutaffakkirlarining ta'limotida umuinsoniy kadriyatlar va ularning mehnat ta'limidagi urnini o'rganish va o'rgatish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish lozim: a) ushbu ma'lumotlarni yagona tizimga keltirish; b) o'quv metodik ta'minotini yaratish; d) mehnat va kasb ta'limi tarakkiyoti, uning rivojlanish tarixini o'rganish va qo'llash; e) o'quvchilarni yosh va aqliy imkoniyatlarini inobatga olish; f) har bir mavzu, bobni o'rganilayotganda tarixiylik, mafkura, ma'naviy va tarbiyaviylik tamoyiliga rioya qilish.

5. Pedagogik jarayonni amalga oshirishda ta'lim muassasalari, mahalla-jamoatchilik, ota-onalar, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari, otaliq korxonalar yagona ta'limiy-tarbiyaviy maqsad atrofida birlashmoqlari lozim.

6. Mexnat ta'limida tarixiy merosimizni o'rganish va o'rgatishda, avvalo, bo'lg'usi talaba yoshlarda shakllantiriladigan insoniy, axloqiy, madaniy va xususiy kasbiy xislatlarning tarixiy ildizi urganilmog'i lozim, ya'ni jarayonning ta'limiy-tarbiyaviy maqsadlari, vazifalari aniq belgilanmog'i lozim.

ADABIYOTLAR

1.. Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T. «O'zbekiston» - 1998y.

2. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma'ruza 1999 y. 14 aprel. «O'zbekiston» - 1999.

3. Karimov I.A. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza 2000 y. 22 yanvar. T., «O'zbekiston» - 2000.

4. Kodirov B. «Ta'lim tizimidagi islohotlar maqsad va yo'nalishlar». T. «O'zbekiston» - 2000 y.

5. Tojiev., Salaxutdinov R., Barakaev M., Abdalova S. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: 2001.
6. Psixologiya i pedagogika. Pod.red. A.A.Radugina. Moskva 2003.
7. «Pedagogika» V.A.Slastenin, I.F.Isaev, A.I.Mihenko, E.N.SHIyanov. Moskva. «SHkolnaya pressa». 2004
8. Pedagogika professionalnogo obrazovaniya. Pod. red. V.A.Slastenina. Moskva «Akademiya», 2003.
9. K. Davlatov, A. Vorobyov, I. Karimov «Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi». Toshkent-O'qituvchi-1992 y.
10. K.D. Davlatov «Mehnat va kasb ta'limi kasb tanlash, mehnat tarbiyasi nazariyasi va uslubiyoti». Toshkent- «Mehnat»-1994 y.
11. A. Xodjaboev, I. Xusanov “Kasbiy ta'lim metodologiyasi” . Toshkent. Fan texnologiyasi nashriyoti, 2007 yil
12. O. Abduqyddusov, X. Rashidov “Kasb –hunar ta'limi pedagogikasi”. Toshkent. O'MKHTTKMO va UQTI, 2009

5142000 - mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun Kaxxorova Dilfuzaning «O'rta osiyoda mehnat va kasb ta'limini rivojlanish tarixi» mavzusidagi BMI ga berilgan

Xulosa

Mehnat tarbiyasi uning ahamiyati to'g'risida qomusiy mutafakkirlarimiz Ibn Sino, Farobiy, Naqshbandiy, Kaykovus, A.Navoiy kabi allomalarimiz o'z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug'lab, yoshlarni mehnat qilishga, mehnatning inson faoliyatida o'rni haqida fikr bildirishgan. Kaxxorova Dilfuzaning «O'rta Osiyoda mehnat va kasb ta'limini rivojlanish tarixi» mavzusidagi BMI dolzarb masalalardan hisoblanadi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari yordamida o'quvchilarni

ijodkorlik-hunarga yo'naltirishning samaradorlik darajasini aniqlash va ularning yangi pedagogik texnologiya tizimini ishlab chiqilgan.

Buyuk allomalarimizning ijodida mehnat tarbiyasi va kasb-xunar talimi xakida gap yuritilar ekan, uni amalga oshirishda xalqimiz kadim zamonlardan beri kullanib kelayotgan va sinovdan utgan, xozirgacha o'z kimmatini yukatmagan usul va vositalar aks etirilgan. Ular ijodida mehnat tarbiyasi va kasb-xunar talipmini urganish va ularning maktab tarbiyaviy ishlardagi uslub va vositalar bilan uygunlashtirish tarbiyaviy ishimizning samaradorligini oshirishda muxim omilardan biri sifatida xizmat kilgan bular edi. Buning uchun mehnat tarbiyasi va kasb-xunar talimiga doir tarixiy manbalardan dars va darsdan talshkari tarbiyaviy ishlarda, bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va kasbga yunaltirish mavzusidagi suxbatlardan foydalanish buyicha metodik tavsiyalar ishlab chikish ayni muddaodir. Mehnat tarbiyasida buyuk allomalarimiz goyalarini yosh avlodimiz ongiga singdirish va o'rgatish o'qituvchilarning mukaddas burchidir.

Tajriba sinov ishlarini tashkil etish va uni o'tkazi metodikasi bayon qilingan. BMI tajriba sinov ishlari o'tkazilgan. Xulosa yaxshi berilgan. Ish juda ham yaxshi yoritilgan DAS talablariga javob beradi. Himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

ukit. Aminova M.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti, "Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi" kafedrasida
2014-yil 28-maydagi yig'ilishining 10-sonli bayonnomasidan

Ko'chirma

Samarqand sh.

Qatnashdilar: Fakultet dekani dots.
Sh.Aminjonov, Kafedra mudiri
dots. B.Muranov, O'quv ishlar bo'yicha
dekan muovini N.Tug'izov, katta
o'qit.O'.O'tanov, o'qituvchilar B.Yuldashev,
N.Nasimova, A.Rahimov, M.Aminova,
texnik xodimlar va bitiruvchi talabalar

K U N T A R T I B I:

2. Kafedrada talabalarning taqvimiy, ijodiy, kurs ishlari va BMI larning bajarilishi haqida.

Mas'ullar va bitiruvchilar

Yig'ilishning borishi:

2-masala bo'yicha kafedra mudiri B.Muranov so'zga chiqib, kafedra a'zolarining 2013-2014o'quv yilida 20 nafar talabani BMIlariga rahbarlik qilish, ularni bajarish, tahrir qilish va himoyaga tayyorlash lozimligi aytiladi.

Yuqoridan kelib chiqib, kafedra yig'ilishi qaror qiladi:

1. Tayyorlangan BMIlarning dastlabki ko'rigi va muhokamasi o'tkazilgan deb hisoblansin.

2. BMI lar matnlari ko'rsatilgan 17 ta mezon asosida va qo'shimcha hujjatlar 13 ta ekanligi ta'kidlansin va asosiy himoyagacha ko'rsatilgan kamchiliklar tuzatilsin.

3. Talaba Qaxxorova «O'rta Osiyoda mehnat va kasb ta'limini rivojlanish tarixi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi M.Aminova ilmiy rahbarligida p.f.n., dotsentlar A.Saidov va B.Donievlar taqrizida ko'rib chiqilgan deb hisoblansin va asosiy himoyaga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi, kafedra mudiri:

B.Muranov

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti, "Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi" kafedrası
2014-yil 28-maydagi yig'ilishining 10-sonli bayonnomasidan

Ko'chirma

Samarqand sh.

Qatnashdilar: Fakultet dekani dots.
Sh.Aminjonov, Kafedra mudiri
dots. B.Muranov, O'quv ishlar bo'yicha
dekan muovini N.Tug'izov, katta
o'qit.O'.O'tanov, o'qituvchilar B.Yuldashev,
N.Nasimova, A.Rahimov, M.Aminova,
texnik xodimlar va bitiruvchi talabalar

K U N T A R T I B I:

2. Kafedrada talabalarning taqvimiy, ijodiy, kurs ishlari va BMI larning bajarilishi haqida.

Mas'ullar va bitiruvchilar

Yig'ilishning borishi:

2-masala bo'yicha kafedra mudiri B.Muranov so'zga chiqib, kafedra a'zolarining 2013-2014o'quv yilida 20 nafar talabani BMIlariga rahbarlik qilish, ularni bajarish, tahrir qilish va himoyaga tayyorlash lozimli aytiladi.

Yuqoridan kelib chiqib, kafedra yig'ilishi qaror qiladi:

1. Tayyorlangan BMIlarning dastlabki ko'rigi va muhokamasi o'tkazilgan deb hisoblansin.

2. BMI lar matnlari ko'rsatilgan 17 ta mezon asosida va qo'shimcha hujjatlar 13 ta ekanligi ta'kidlansin va asosiy himoyagacha ko'rsatilgan kamchiliklar tuzatilsin.

3. Talaba Qaxxorova «O'rta Osiyoda mehnat va kasb ta'limini rivojlanish tarixi» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi M.Aminova ilmiy rahbarligida p.f.n., dotsentlar A.Saidov va B.Donievlar taqrizida ko'rib chiqilgan deb hisoblansin va asosiy himoyaga tavsiya etilsin.

Yig'ilish raisi, kafedra mudiri:
Kotibi:

B.Muranov
R.Tog'ayeva

